

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

**ODAM SAVDOSIDAN JABRLANGANLARNI  
IDENTIFIKATSIYA QILISH**

**Amaliy qo‘llanma**

*(II Oda odam savdosiga qarshi kurash faoliyatini amalga  
oshiruvchi xodimlar uchun metodik tavsiyalar)*

**TOSHKENT - 2025**

***O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish institutining  
Ilmiy kengashida ma’qullangan***

***Muallif:***

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti boshlig‘ining  
birinchi o‘rinbosari, polkovnik **U.E. Rasulev**

***Taqrizchilar:***

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti Maxsus kasbiy  
fanlar kafedrası boshlig‘i, s.f.d., professor, podpolkovnik  
**F.F. Xatamov**

Respublika “Istiqbolli avlod” ijtimoiy-axborot  
markazining boshqaruv raisi

**I. Karimova**

**O-85 Odam savdosidan jabrlanganlarni identifikatsiya qilish:** Amaliy  
qo‘llanma / U.E.Rasulev. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish  
institutini, 2025. – 52 bet.

Ushbu amaliy qo‘llanma Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat  
masalalari bo‘yicha milliy komissiyaning tomonidan tasdiqlangan **“O‘zbekiston  
Respublikasi Odam savdosiga qarshi kurashish Konsepsiyasi”**ni ijrosini  
ta‘minlash maqsadida tayyorlangan bo‘lib, unda odam savdosiga qarshi kurashning  
huquqiy asoslari, odam savdosidan jabrlanganlarni identifikatsiya va ularni  
reabilitatsiya qilish masalalari yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tinglovchilari,  
tadqiqotchi-izlanuvchilar, shuningdek, ichki ishlar organlarining amaliyotchi  
xodimlari uchun mo‘ljallangan.

## KIRISH

XXI asrning birinchi o‘n yilligi ilm-fan, texnika va yangi axborot texnologiyalari rivojining jadallashuvi, axborot almashuvi tizimining tubdan takomillashganligi bilan insoniyat tarixida o‘ziga xos yangi davr – globallashuv asrini boshlab berdi.

Bu jarayonda dunyo mamlakatlari xalqaro munosabatlarda yalpi va mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash, iqtisodiy va ijtimoiy, madaniy va axborot, siyosiy va huquqiy sohalarda hamkorlik qilish, umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy o‘ziga xos an‘ana va qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga alohida e‘tibor qaratmoqdalar. Buning natijasi o‘laroq, xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlari faollashmoqda, fuqarolarning mehnat qilish, ta‘lim olish, turizm va shu kabi turli maqsadlarda boshqa davlatlarga chiqishi, erkin faoliyat olib borishi uchun imkoniyatlar yanada kengaymoqda.

Umumjahon miqyosdagi ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, afsuski, ayrim transmilliy jinoyatlarning ortishi ham yaqqol kuzatilmoqda. Odam savdosi ham umumjahon miqyosidagi muammolardandir.

Insonni ulug‘lash, uning huquq va erkinliklari himoyasini ta‘minlash asosiy qadriyatga aylangan ushbu davrda bu mudhish illat noqonuniy qurol savdosi, giyohvandlik vositalarining g‘ayriqonuniy muomalasi kabi og‘ir oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Odam savdosi – ko‘p qirrali xavf va inson huquqlariga qarshi jiddiy jinoyatdir. U odamlardan ularning huquqlari va erkinligini tortib oladi, shaxsiy daxlsizligiga hamda ularning sog‘ligiga bevosita xavf soladi hamda butun jahonda uyushgan jinoyatchilikning o‘shishiga sabab bo‘ladi.

Odam savdosidan jabrlanganlarning huquqlarini himoya qilish va ularga yordam ko‘rsatish odam savdosiga qarshi kurash tizimining ajralmas elementi hisoblanadi. Shu bois, O‘zbekistonda odam savdosiga qarshi kurash, uning oldini olish, sabablarini aniqlash, unga barham berish, uning oqibatlarini minimal darajaga

keltirish bilan bir qatorda odam savdosidan jabrlanganlarga huquqiy, psixologik va tibbiy yordam berish dolzarb masala hisoblanadi.

## **1 §. ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI**

### **Birlashgan Millatlar Tashkilotining odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy hujjatlari**

*Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi”ni to‘ldiruvchi “Odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo‘yish va uning uchun jazolash haqidagi Bayonnomasi”* (BMTning odam savdosi to‘g‘risidagi protokoli) odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi asosiy xalqaro huquqiy hujjatdir. U Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 2000 yil 15 noyabrdagi 55/25 rezolyusiyasiga muvofiq qabul qilingan.

BMTning Odam savdosi to‘g‘risidagi protokoli muqaddima va 30 ta moddadan iborat. Muqaddimada «odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalarning ekspluatatsiyasiga qarshi kurash bo‘yicha standartlar va amaliy chora tadbirlarni ko‘zda tutuvchi bir qator xalqaro hujjatlar mavjud bo‘lsa-da, odam savdosining barcha jihatlarini qamrab oluvchi universal hujjat yo‘q» deb e‘tirof etiladi. Shuningdek, muqaddimada – «odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha samarali chora-tadbirlardan kelib chiqish, tranzit va borish mamlakatlarida, shu jumladan, odam savdosining oldini olish, ishtirok etganlarni jazolash va odam savdosidan jabrlanganlarni himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni, shu jumladan, xalqaro miqyosda tan olingan inson huquqlarini himoya qilish orqali keng qamrovli xalqaro yondashuvni talab qiladi», deyilgan.

BMTning Odam savdosi to‘g‘risidagi protokolining maqsadi ayollar va bolalarga alohida e‘tibor qaratgan holda odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish; inson huquqlarini to‘liq hurmat qilgan holda odam savdosidan jabrlanganlarni himoya qilish va ularga yordam berish; ushbu maqsadlarga erishishda ishtirokchi davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantirishdir.

BMTning Odam savdosi to'g'risidagi protokoli BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini to'ldiradi. Shu sababli, BMTning Odam savdosi to'g'risidagi protokolining 1-moddasida ta'kidlanganidek, ikkala hujjat ham birgalikda talqin qilinishi va qo'llanilishi kerak. BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi qoidalari BMTning Odam savdosi to'g'risidagi protokolini qo'llash bilan bevosita bog'liq, masalan:

- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni kriminalizatsiya qilish (6 va 7-moddalar)
- Korrupsiyani kriminalizatsiya qilish (8 va 9-moddalar)
- Yuridik shaxslarning javobgarligi (10-modda)
- Jinoyatdan olingan daromadlarni musodara qilish, olib qo'yish va tasarruf etish (12 va 14-moddalar)
- Ekstraditsiya (16-modda)
- Mahkumlarni topshirish (17-modda)
- O'zaro huquqiy yordam (18-modda)
- Qo'shma tergov o'tkazish (19-modda)
- Maxsus tergov usullari (20-modda)
- Jinoiy ish yuritishni topshirish (21-modda)
- Guvohlarni himoya qilish (24-modda)
- Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hamkorligi (27-modda) va boshqalar.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi va BMTning Odam savdosi to'g'risidagi protokoli ishtirokchi-davlatlar rioya qilishlari shart bo'lgan minimal standartlarni belgilaydi.

***Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushtlikdan foydalanilishiga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiya*** (BMT Bosh Assambleyasi 317 (IV) sonli rezolyusiyasi bilan 1949 yil 2 dekabrda qabul qilingan) davlatdan uchinchi shaxslarning tanfurushtligidan foydalangan har qanday shaxsni jazolashni talab qiladi.

***Qullik to'g'risidagi konvensiya*** (1926 yil 25 sentabrda Jenevada imzolangan) qullik tushunchasini belgilaydi unga va Qo'shimcha protokol esa «qullikka o'xshash holatlar» nimalarda namoyon bo'lishini, shu jumladan, qarz uchun qullik va nikoh sharoitida ayollarni kamsituvchi institutlar va amaliyotlarni yoritadi.

Ayrim xalqaro shartnomalarda bolalarga nisbatan alohida qoidalar mavjud. ***Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya*** (BMT Bosh Assambleyasining 1989 yil 20 noyabrdagi 44/25 rezolyusiyasi bilan qabul qilingan) va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga (bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli) Fakultativ Protokol (BMT Bosh Assambleyasining 2000 yil 25 maydagi 54/263 rezolyusiyasi bilan qabul qilingan) bolalar savdosini (so'zma so'z: bolalarni «sotish», bolani har qanday shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan boshqa shaxsga yoki shaxslar guruhiga to'lov yoki boshqa haq evaziga o'tkazish) taqiqlaydi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 39-moddasida davlatlardan farzand asrab olishni «har qanday shakldagi qarovsizlik, ekspluatatsiya yoki zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolaning jismoniy va ruhiy tiklanishiga va ijtimoiy reintegratsiyasiga yordam berish uchun barcha zarur choralar» ko'rish talab qilinadi. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning Bolalar savdosiga taalluqli Fakultativ Protokolida jabrlangan bolalar uchun mavjud bo'lishi kerak bo'lgan himoya va yordamning o'ziga xos shakllari ko'rsatilgan (8-moddada sanab o'tilgan).

Xalqaro mehnat tashkilotining uchta konvensiyasi majburiy mehnat va xizmatlar masalalariga bag'ishlangan: ***Zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya*** (1930, № 29) va 1930 yildagi Majburiy mehnat konvensiyasiga zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnatni belgilaydigan Protokol (2014), ***Majburiy mehnatni tugatish to'g'risidagi konvensiya*** (1957, № 105) va ***Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va barham berishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiya*** (1999, №182).

**Odam savdosi tushunchasi** BMTning Odam savdosi to'g'risidagi protokolida belgilangan. Protokolda jinoyatning ushbu turini belgilash bilan bir qatorda davlatlarning odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha

majburiyatlari ham ko‘rsatilgan. «Odam savdosi» – kuch ishlatish bilan tahdid qilish yoki ishlatish yoki majburlashning boshqa shakllari, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, mavqeni suiiste‘mol qilish orqali yoki zaif holatidan foydalanib ekspluatatsiya qilish maqsadida, yoki boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun pora, to‘lovlar yoki imtiyozlar orqali odamni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishdir. Ekspluatatsiya, hech bo‘lmaganda, uchinchi shaxslarning tanfurushligidan foydalanish yoki shahvoniy ekspluatatsiyaning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullik yoki qullikka o‘xshash odatlar, odam a‘zolari yoki to‘qimalari olinishini anglatadi (BMTning Odam savdosi to‘g‘risidagi protokoli 3-a moddasi).

Odam savdosi murakkab jinoyat bo‘lib, uchta tarkibiy qismga ajratiladi: jinoiy qilmish, ta’sir qilish usuli va ekspluatatsiya maqsadi. Odam savdosi sifatida kvalifikatsiya qilish uchun jadvalda keltirilgan muqobil elementlar ro‘yxatidan kamida bitta jinoiy qilmish, bitta ta’sir qilish usuli va ekspluatatsiya maqsadini aniqlash va isbotlash kerak.

### **Odam savdosining tarkibiy qismlari**

Jinoiy qilmish nima?	Yollash, tashish, topshirish, yashirish, qabul qilish
Ta’sir qilish usuli qanday?	Tahdid, kuch ishlatish yoki majburlashning boshqa shakllari, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, vakolatni suiiste‘mol qilish orqali yoki nochor holatdan foydalanib ekspluatatsiya qilish maqsadida pora berish, to‘lovlar yoki imtiyozlar berish yo‘li bilan boshqa shaxs ustidan nazoratga ega bo‘lgan shaxsning roziligini olish
Ekspluatatsiya maqsadi nima uchun?	boshqa shaxslar fohishabozligi, shahvoniy ekspluatatsiyaning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullik yoki qullikka o‘xshash odatlar, odam a‘zolari yoki to‘qimalari olinishi, boshqa shakllar

Uch elementning har biri (jinoiy qilmish, ta'sir qilish usuli, ekspluatatsiya maqsadi) majburiydir. Har bir element ichidagi ro'yxat muqobil tanlovni ifodalaydi.

Odam savdosi holatida muqobil jinoiy qilmishlardan birini aniqlash va isbotlash kifoya:

- yollash
- tashish
- topshirish, yashirish
- qabul qilish.

«Yollash» deganda odamni har qanday jarayonga jalb qilish tushuniladi, u turli yo'llar bilan, shu jumladan, og'zaki, reklama orqali yoki Internet orqali onlayn tarzda amalga oshirilishi mumkin. Transmilliy holatlarda yollash kelib chiqish, tranzit yoki 3-mamlakatda, masalan, rasmiy yoki yarim rasmiy xususiy ishga yollash agentliklari orqali amalga oshirilishi mumkin<sup>1</sup>.

«Tashish» deganda tashuvchining quruqlikda, dengizda yoki havoda har qanday transport vositasi yoki turlaridan foydalangan holda harakatlari tushuniladi. Tashish qisqa yoki uzoq masofalarga, bir mamlakat ichida yoki davlat chegaralari orqali amalga oshirilishi mumkin<sup>2</sup>.

«Topshirish», shuningdek, odamni jo'natishni anglatishi mumkin, ammo bu shaxs ustidan haqiqiy boshqaruvini boshqa shaxsga o'tkazishni ham anglatishi mumkin. Bu, ayniqsa, odamlar (asosan oila a'zolari) ustidan nazorat boshqa odamlarga o'tkazilishi mumkin bo'lgan ba'zi madaniy urf-odatlarda juda muhimdir<sup>3</sup>.

Turli yurisdiksiyalarda «yashirish» turlicha tushunilishi mumkin, masalan, shaxsni kelib chiqish, tranzit yoki uchinchi mamlakatga ekspluatatsiya qilishdan oldin yoki joyiga joylashtirish yoki shaxsning turgan joyini yashirish choralarini ko'rish. Yashirish odamni ushlab turishni ham anglatishi mumkin<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> UNODC, Legislative Guide for the Implementation of the Protocol to Prevent, Suppress and Punish Trafficking in Persons, especially Women and Children (2020) 29.

<sup>2</sup> Юкоридаги хужжатда

<sup>3</sup> Юкоридаги хужжатда

<sup>4</sup> Юкоридаги хужжатда

Odamni «qabul qilish» «topshirish» bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, odamning yetib kelishi, biror kishini belgilangan joyga kutib olishni yoki shaxs ustidan nazoratni qo‘lga kiritishni anglatishi mumkin. Shuningdek, u odamlarni, shu jumladan, majburiy mehnatni ham qamrab olishi mumkin. Qabul qilish, shuningdek, avlodlararo erksizlik sharoiti yoki maqbul mehnat sharoitlarini majburlab ekspluatatsiya qilishga o‘zgartirish kabi oldingi jarayon bo‘lmagan holatlarga ham tegishli bo‘lishi mumkin<sup>5</sup>.

**Ta’sir qilish usuli.** Ushbu jinoyatning zaruriy belgisi jabrlanuvchining irodasini so‘ndirish, uni nazorat qilish va ekspluatatsiya qilish uchun jabrlanuvchiga g‘arazli ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq shaxsning erkinligini poymol qilishdir. Muqobil jinoiy qilmish shaxsning irodasiga ta’sir qilishning quyidagi muqobil usullaridan kamida bittasi yordamida sodir etilishi kerak:

1) *kuch ishlatish tahdidlari yoki kuchdan foydalanish yoki majburlashning boshqa shakllari* («**Tahdidlar**») jismoniy, psixologik, hissiy yoki iqtisodiy oqibatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’rifda tahdid yoki kuch yo‘naltirilgan (yoki unga qarshi qaratilgan) shaxs (yoki mulk) haqida hech narsa aytilmagan. Bu odam savdosidan jabrlangan yoki xuddi shunday uchinchi tomon bo‘lishi mumkin. «**Majburlashning boshqa shakllari**» atamasi keltirilmagan, ammo ushbu atamaning talqini ichki qonunchilikka bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bularga, masalan, shantaj, tovlamachilik va boshqa asossiz talablar kiradi. Umuman olganda, majburlash deganda jismoniy yoki ruhiy bosim, kuch ishlatish yoki uni qo‘llash bilan tahdid qilishni o‘z ichiga olgan murakkab atama sifatida tushunish mumkin);

2) *o‘g‘irlash* («**Odam o‘g‘irlash**») atamasini kidnepping (odam o‘g‘irlash) deb talqin qilish mumkin. Odam o‘g‘irlash uchun uning irodasiga qarshi hibsga olinganligi to‘g‘risida dalillar talab qilinishi mumkin. Odam o‘g‘irlash deganda shaxsni noqonuniy ushlab turish yoki uning erkinligini boshqa yo‘l bilan cheklash tushunilishi mumkin. Ko‘pincha bu tahdid qilish yoki kuch ishlatish bilan bog‘liq; amalda bir vaqtning o‘zida turli xil ta’sir usullarini qo‘llash mumkin);

---

<sup>5</sup> UNODC, Legislative Guide for the Implementation of the Protocol to Prevent, Suppress and Punish Trafficking in Persons, especially Women and Children (2020) 30–33.

3) *firibgarlik va aldov* (Ba'zi kontekstlarda «firibgarlik» va «aldash» atamaları sinonimdir. Biroq, ba'zi huquqiy tizimlarda bu atamalar o'rtasida farqlar mavjud. Aldash deganda haqiqiy holatlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatishni tushunish mumkin. Boshqa tomondan, firibgarlik aldanuvchini mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini qo'lga kiritish maqsadida aldashni anglatadi. Firibgarlik va aldash ostida odam savdosi kontekstida ko'pincha odam savdosidan jabrlanganlar qabul qilinadigan ishning mohiyati, ish joyi, yakuniy ish beruvchi, yashash va mehnat sharoitlari, boradigan mamlakatlardagi huquqiy maqom, sayohat shartlari va boshqalar to'g'risida yanglishtiruvchi ma'lumotlarni berishni o'z ichiga oladi. Ko'p hollarda firibgarlik va aldash tahdid, zo'ravonlik yoki majburlash bilan birgalikda qo'llaniladi. Aldashning ob'ektiv tomoni nafaqat harakat, balki harakatsizlikda ham namoyon bo'ladi);

4) *Shaxsning nochor ahvolidan (zaifligidan) foydalanish* («Zaiflik» deganda shaxsning turmush sharoitini shakllantiruvchi muhitning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillarning murakkab o'zaro ta'sirining shaxsga salbiy ta'siri natijasida yuzaga keladigan holat sifatida ta'riflash mumkin. Demak, zaiflik statik mutlaq holat emas, balki muhitga, shuningdek, shaxsning unga javob berish qobiliyatiga qarab o'zgarib turadigan holatdir. Shuning uchun zaiflikni baholashda inson hayotining yashash sharoitlarini, shuningdek, unga o'zini tashqi ta'sirlarning salbiy jihatidan himoya qilishga imkon beradigan moslashish mexanizmlarini hisobga olish kerak. **Shaxsning nochor ahvolidan** foydalanish ikkita komponentni o'z ichiga oladi: jabrlanuvchining zaif holati mavjudligini isbotlash va ushbu zaiflikni suiiste'mol qilinishi holati isboti. Zaiflikning mavjudligi, taxmin qilinayotgan jabrlanuvchining shaxsiy sharoiti, vaziyati yoki bilvosita vaziyatini hisobga olgan holda, har bir holatni alohida baholash – baholashning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Masalan, shaxsiy zaiflik insonning jismoniy yoki ruhiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Vaziyatdagi zaiflik, shaxsning ijtimoiy yoki lingvistik jihatdan izolyatsiya qilingan boshqa mamlakatda noqonuniy bo'lishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bilvosita zaiflik ishsizlik yoki iqtisodiy nochorlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin)

5) *mavqeni suiiste'mol qilish* («**Mavqeni suiiste'mol qilish**») tushunchasi shaxsning o'zaro munosabatlarning xususiyatiga ko'ra, boshqa shaxs ustidan ustunlikka ega bo'lgan holat sifatida talqin qilinadi (masalan, ish beruvchi va xodim, o'qituvchi va talaba, murabbiy va sportchi). Bu, shuningdek, ayrim huquqiy tizimlarda oilada erkakning ayol ustidan ustunlikka ega bo'lgan holatlarni, shuningdek, ota-onalarning farzandlari ustidan bo'lishi mumkin bo'lgan ustunlikni ham o'z ichiga olishi mumkin);

6) *boshqa shaxs ustidan nazoratga ega bo'lgan shaxsning roziligini olish uchun to'lovlar yoki imtiyozlar berish shaklida og'dirib olish* («**Boshqa shaxs ustidan nazoratga ega bo'lish**») tushunchasi dalillar bo'yicha aniqlanishi mumkin. Masalan, vasiy bolani, qo'riqchi mahbusni yoki o'g'ri jabrlanuvchini nazorat qilishi mumkin. Foyda taqdim etish jabrlanuvchi ustidan nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish sharti bilan amalga oshirilishi kerak; masalan, vasiylarga bolani ekspluatatsiya qilish maqsadida tashish uchun pul summasini to'lash. Bundan tashqari, davlat organlari o'z nazorati ostidagi shaxslarni odam savdosi bilan shug'ullanuvchilarga topshirish evaziga moliyaviy kompensatsiya yoki boshqa imtiyozlarni qabul qilgan holatlar mavjud).

Ta'sir qilish usullarining ta'riflari BMT GMJBB tomonidan ishlab chiqilgan «Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini to'ldiruvchi «ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi protokolini qo'llash» bo'yicha konvensiyasini to'ldiruvchi» materialida batafsil muhokama qilinadi.

**Ekspluatatsiya maqsadi.** Odam savdosining uchinchi tarkibiy elementi – bu harakatlar sodir etish dan maqsad, ya'ni ekspluatatsiya. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Odam savdosiga qarshi Protokolining 3(a)-moddasida ekspluatatsiyani tashkil etuvchi misollarning to'liq bo'lmagan ro'yxati keltirilgan:

«Ekspluatatsiya, kamida, uchinchi shaxslarning fohishabozlikdan foydalanish yoki shahvoniy ekspluatatsiyaning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullik yoki qullikka o'xshash an'analar, erksizlik holati yoki tana a'zolarini kesib olishni o'z ichiga oladi». Yuqoridagi ro'yxat to'liq bo'lmaganligi sababli, BMTning

Odam savdosi to'g'risidagi protokoli doirasida ekspluatatsiyaning yangi yoki kamroq tarqalgan shakllarini, masalan, tilanchilikdan foydalanish, jinoiy faoliyat va boshqalarni kiritish mumkin. (jadvalga qarang).

**BMTning Odam savdosi to'g'risidagi protokolida nazarda tutilgan odam savdosining boshqa misollari**

1.	Majburiy nikohlar Protokolning odam savdosi ta'rifiga mos keladigan harakat, usul va maqsadni o'z ichiga olishi mumkin. Bunda harakat tegishli shaxsni topshirish yoki qabul qilish; usuli esa kuch ishlatish, tahdidlar, majburlash yoki o'g'irlash; maqsadi esa shaxvoniy ekspluatatsiya va/yoki qullik bo'lishi mumkin
2.	Ayrim doiralarda (jamoalar) oila a'zolaridan biri jinoyat sodir etsa, «aybdor»ning oilasidan bo'lgan yosh ayol jinoyatni «kafforat qilish» uchun ruhoniyligi yoki jabrlanuvchining oila a'zolari bilan qullikda yashashga yuboriladi. Bunda harakat qabul qilish yoki yashirish; usul majburlash, mavqeni suiiste'mol qilish yoki zaifligi holatidan foydalanish; maqsad shahvoniy yoki mehnat ekspluatatsiyasi, qullik yoki erksiz holati bo'lishi mumkin
3.	Xizmatchilarni ko'pincha diplomatik xodimlar yollashadi. Dunyoning turli mamlakatlarida bir qator holatlarda xizmatchilarning bir qismi yollanadi va uyda xo'jalik ishlarini qilishga majburlanadi
4.	Qurolli mojarolar paytida bolalar va kattalarni majburiy o'g'irlash va harbiy xizmatga jalb qilish ham odam savdosi jinoyati sifatida jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin
5.	Bolalar, ayniqsa, qurolli kuchlarga yollanishda ruhiyligi va jismoniy norasidaliklari tufayli zaif hisoblanadi. Bunda harakat bolani yoki kattalarni yollash, tashish yoki qabul qilish; usul (kattalar uchun) kuch ishlatish yoki tahdid qilish yoki zaiflik holatini suiiste'mol qilish va maqsad qullik, majburiy mehnat yoki shahvoniy ekspluatatsiya bo'lishi mumkin
6.	Ayrim, ayniqsa, farzandlikka olishning noqonuniy shakllari tobora keng tarqalgan, bolalarni asrab olish bozorlari allaqachon mavjud bo'lgan mamlakatlarda odam savdosi jinoyati sifatida jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Bolalar o'z onalaridan majburiy ravishda ajratilishi mumkin, keyinchalik ular noqonuniy shartnomalar tuzish uchun foydalaniladigan shakllarni imzolashga majbur bo'ladilar. Bunda harakat bolani tashish yoki qabul qilish va maqsad qullik yoki shahvoniy ekspluatatsiya bo'lishi mumkin.

Ekspluatatsiya turli yo‘llar bilan namoyon bo‘lishi mumkinligi sababli uni aniqlash qiyin bo‘ladi. Shuning uchun ekspluatatsiya nima ekanligini aniqlash masalasiga har tomonlama yondashish kerak. Shu bilan birga, qonuniylik prinsipiga rioya qilishning aniq yo‘nalishlarini belgilash, shuningdek, odam savdosiga qarshi jinoiy-huquqiy choralar og‘ir qilmishlarga qaratilganligini yetarli darajada ta‘minlash zarur.

Jinoyat huquqida *mens rea* standarti sifatida «maqsad bilan» iborasi bilishini yoki niyatni anglatishi mumkin. Demak, jinoyat tarkibini aniqlash uchun ayblanuvchining taqiqlangan qilmishni jabrlanuvchidan foydalanish niyatida yoki uning ekspluatatsiya qilinishini bilib sodir etganligi yetarli dalildir. Bu shuni anglatadiki, ayblanuvchi jabrlanuvchini ekspluatatsiya qiluvchi shaxs bo‘lishi shart emas. Bu ham odam savdosi jinoyatida haqiqiy ekspluatatsiya talab qilinmasligini, balki ekspluatatsiya qilish maqsadi bo‘lganligi yetarli ekanligini bildiradi. Odam savdosi – alohida yoki maxsus qasd bilan qilinadigan jinoyatdir (*dolus specialis*).

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyat- chilikka qarshi konvensiyasini to‘ldiruvchi «Odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, uni cheklash va uning uchun jazo tayinlash to‘g‘risida»gi Protokolning 3(b) bandiga muvofiq, agar ta‘sir qilish usullaridan birortasi qo‘llanilgan bo‘lsa, odam savdosidan jabrlanganing rejalashtirilgan ekspluatatsiyaga roziligi hisobga olinmaydi.

Odam savdosidan jabrlanganlar ulardan foydalanishga rozi bo‘lishlari mumkin, ammo ularning roziligi ahamiyatga ega emas, agar u ta‘sir qilish usullaridan biri yordamida olingan bo‘lsa, shuningdek, jabrlanuvchi yosh bola bo‘lgan holatda ham bu muhim emas, chunki bu holda ta‘sir qilish faktini aniqlash ham shart emas.

Muayyan vaziyatning odam savdosi ekanligini aniqlashda BMTning Odam savdosi to‘g‘risidagi protokolida keltirilgan ta‘rifga va tegishli ichki qonunchilikda belgilangan jinoyat tarkibi elementlariga tayanib baho berilishi lozim.

### **Odam savdosi va migrantlarni noqonuniy olib kirishni farqlash.**

Odam savdosi va migrantlarni noqonuniy olib kirish turli jinoyatlardir. Odam savdosi shaxsga qarshi jinoyat hisoblanib, inson erkinligini poymol etsa, migrantlarni olib kirish davlatga qarshi jinoyat hisoblanadi.

Odam savdosi va migrantlarni noqonuniy olib kirishni farqlash ikki sababga ko'ra muhim: birinchidan, tegishli jinoyatlarning tarkibiy elementlari har xil; ikkinchidan, huquqbuzarlikka qarab, hokimiyatdan turlicha munosabat bildirish talab etiladi.

«Migrantlarni noqonuniy olib kirish» to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita har qanday moliyaviy yoki boshqa moddiy manfaat olish maqsadida uning fuqarosi yoki rezidenti bo'lmagan har qanday shaxsning Ishtirokchi Davlatga noqonuniy kirishini ta'minlashni anglatadi» (3 a-modda). Bosh Assambleyaning 2000 yil 15 noyabrdagi 55/25-son rezolyusiyasi bilan qabul qilingan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT konvensiyasini to'ldiruvchi migrantlarning quruqlik, dengiz va havo orqali olib o'tishga qarshi Protokol (BMTning migrantlarni noqonuniy olib kirishga qarshi protokoli).

BMTning migrantlarni noqonuniy olib kirishga qarshi bayonnomasining 3-moddasida migrantlarni noqonuniy olib kirish quyidagi elementlardan iboratligi qayd etilgan:

- shaxsning noqonuniy kirishini ta'minlash;
- boshqa davlatga;
- har qanday moliyaviy yoki boshqa moddiy manfaat olish maqsadida.

3-moddaning b bandida qo'shimcha ravishda «noqonuniy kirish» deganda qabul qiluvchi davlatga qonuniy kirish uchun zarur bo'lgan talablarga javob bermasdan davlat chegaralarini kesib o'tish tushuniladi.

Amalda odam savdosi va migrantlarni noqonuniy olib kirishni farqlashda muammolar mavjud. Ko'pincha odam savdosidan jabrlanganlar – noqonuniy kiritilgan migrantlardir. Shuning uchun jinoyat ishlari bo'yicha amaliyotchilar uchun odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha qo'llanmada ta'kidlanganidek, migrantlarni noqonuniy kiritilishiga oid ishlarni tergov qilayotganlar odam savdosi jinoyatidan xabardor bo'lishlari muhimdir. Agar odam savdosi ishi migrantlarni noqonuniy olib kirishga oid ish sifatida ko'rilsa, bu jabrlanuvchi uchun dahshatli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Odam savdosi protokoli

noqonuniy muhojirlarga ko'rsatilganidan ko'ra, odam savdosidan jabrlanganlarga ko'proq yordam va himoyani ta'minlaydi. Noqonuniy olib kirish uchun belgilangan jazo, odatda, odam savdosi uchun belgilangan jazoga nisbatan yengildir.

Migrantlarni noqonuniy olib kirish, garchi ko'pincha xavfli yoki nomuvofiq sharoitlarda amalga oshirilgan bo'lsa-da, noqonuniy olib kirishga rozi bo'lgan muhojirlarni o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, odam savdosidan jabrlanganlar hech qachon rozi bo'lmagan yoki dastlab rozi bo'lgan bo'lsa, ularga nisbatan majburlash vositalari qo'llanilganidan so'ng ularning bergan dastlabki roziligi ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bolalar yoshi tufayli zaif hisoblanganligi sababli, ularga nisbatan majburlov qo'llanilgan yoki qo'llanilmaganidan qat'i nazar ularning roziligi ahamiyatga ega emas.

Migrantlarni noqonuniy olib kirish muhojirlar belgilangan manzilga yetib kelganida tugaydi, odam savdosi esa jabrlanuvchini keyingi ekspluatatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Amaliy nuqtai nazardan, odam savdosidan jabrlanganlar noqonuniy olib kirilgan migrantlarga qaraganda ko'proq azob chekishadi va ular qayta viktimizatsiyadan ko'proq himoyaga muhtoj bo'lishadi.

Migrantlarni noqonuniy olib kirish har doim transmilliy jinoyat bo'lib, odam savdosi esa transmilliy xususiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Odam savdosi jabrlanuvchilar boshqa davlatga jo'natilgan yoki aynan shu davlat ichida bir joydan ikkinchi joyga ko'chirilganidan qat'i nazar sodir bo'lishi mumkin.

## Odam savdosi va migrantlarni noqonuniy olib kirish o'rtasidagi asosiy farqlar

	<b>Migrantlarni noqonuniy olib kirish</b>	<b>Odam savdosi</b>
<b>Geografiya</b>	Noqonuniy olib kirish har doim xalqaro chegaralarni kesib o'tishni o'z ichiga oladi. Bu transmilliy jinoyatdir.	Odam savdosi faqat bir davlat chegaralarida yoki transmilliy miqyosda sodir bo'lishi mumkin.
<b>Maqsad</b>	Migrantlarni noqonuniy o'tkazuvchilar «moliyaviy yoki moddiy manfaat» olish maqsadida harakat qiladilar.	Odam savdosining maqsadi jabrlanuvchini ekspluatatsiya qilishdir.
<b>Rozilik</b>	Rozilik migrantlarni noqonuniy olib kirish ta'rifining elementi emas. Shuni ta'kidlash kerakki, amalda noqonuniy olib kirilgan migrantlar, odatda, shunga o'zlari rozi bo'lishadi.	Odam savdosidan jabrlanganlar harakat yoki ekspluatatsiyaga rozi bo'lishlari mumkin, ammo vositalardan foydalanishda shaxsning roziligi ahamiyatga ega emas.
<b>Ekspluatatsiya</b>	Ekspluatatsiya migrantlarni noqonuniy olib kirishning elementi emas. Noqonuniy tashuvchilar migrantlarni ekspluatatsiya qiladigan bo'lsa, bu aybni og'irlashtiruvchi noqonuniy tashish yoki ba'zi hollarda odam savdosi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.	Ekspluatatsiya odam savdosining maqsadli elementidir.
<b>Manfaat</b>	Manfaat («moliyaviy yoki boshqa moddiy manfaat») migrantlarni noqonuniy olib kirishning maqsadli elementi hisoblanadi. Manfaat migrantlarni noqonuniy olib kiruvchi shaxslar uchun xizmat ko'rsatish (chegarani noqonuniy kesib o'tish, turar joy yoki hujjatlar bilan bog'liq firibgarlik sodir qilish) bilan ta'minlanadi.	Shuni ta'kidlash kerakki, amalda odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar jabrlanuvchini ekspluatatsiya qilish orqali foyda olishga intiladi.
<b>Jabrdiydalar</b>	Migrantlarni noqonuniy olib kirishga qarshi bayonotga ko'ra, noqonuniy olib kirilgan migrantlar «jabrlanuvchilar» hisoblanmaydi. Bayonotda «jabrlanuvchi» atamasi ishlatilmagan bo'lsa-da, ular o'z hayoti va xavfsizligi xavf ostida bo'lgan yoki ularga nisbatan g'ayri-insoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalaga, shu jumladan, ekspluatatsiyaga duchor bo'lgan noqonuniy olib kirish jinoyatining og'irlashtiruvchi holatlarida jinoyat qurboni hisoblanishi mumkin.	Odam savdosidan jabrlangan shaxslar odam savdosi jinoyati qurboni hisoblanadi. Shuningdek, ular odam savdosi paytida sodir etilgan boshqa jinoyatlardan jabrlangan bo'lishlari mumkin.
<b>Jinoyatchilar</b>	Noqonuniy olib kiruvchilar tasodifiy tanishlar, uyushgan jinoiy guruh a'zolari, migrantning oilasi yoki do'stlari yoki boshqalar bo'lishi mumkin, biroq bunda faqat moliyaviy yoki boshqa moddiy	Migrantlarni noqonuniy olib kiruvchilar uyushgan jinoiy guruh a'zolari, jabrlanuvchilarning oila a'zolari, do'stlari va h.k. bo'lishi mumkin.

## **2 §. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISH TO‘G‘RISIDAGI MILLIY NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARI**

### **Odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy milliy normativ-huquqiy hujjatlar**

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining** 13-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga muvofiq, sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

O‘zbekiston odam savdosiga qarshi kurash bo‘yicha qator xalqaro hujjatlarni, jumladan, BMTning Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan fohishabozlikdan foydalanilishiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiyasini (1949) ratifikatsiya qilgan; BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi (2000); BMTning Odam savdosi to‘g‘risidagi protokoli (2000); Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (1989) va Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasi bo‘yicha Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shimcha Protokol (2000) ratifikatsiya qilgan.

Ushbu xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi majburiyatlarni nazarda tutadi va ularni amalga oshirishda, shuningdek, «O‘zbekiston–2030» strategiyasi va 2015 yilda BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish doirasida katta ahamiyat kasb etadi.

**O‘zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonuni.** O‘zbekistonda ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlar asosida «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonuni (yangi tahriri) qabul qilindi. «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonunda «odam savdosi», «voyaga

yetmagan shaxs savdosi», «kelib chiqish mamlakati», «odam savdosidan jabrlangan shaxs», «majburlash» va boshqa tushunchalar mavjud.

## Odam savdosiga qarshi kurash sohasidagi asosiy ta'riflar

<b>Odam savdosi</b>	Kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud majburlashning boshqa shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish yo'li bilan odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning o'zga shakllarini, majburiy mehnatni yoki xizmatlarni, qullikni yoxud qullikka o'xshash odatlarni, erksizlik holatini yoxud inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olishni anglatadi.
<b>Voyaga yetmaganlar savdosi</b>	«Odam savdosi» degan tushunchada ko'rsatilgan ta'sir o'tkazish vositalaridan foydalanilgan-foydalanilmaganligidan qat'i nazar, har qanday harakat yoki bitim bo'lib, ular vositasida voyaga yetmagan shaxs ota-onasi, boshqa qonuniy vakili yoki o'zga shaxs tomonidan qonunga xilof ravishda undan foydalanish maqsadida yoxud moddiy yoki boshqa naf olish maqsadida boshqa shaxsga haq evaziga beriladi.
<b>Kelib chiqish mamlakati</b>	Hududidan odam savdosidan jabrlanganlarni olib chiqish amalga oshirilgan yoki fuqarolari odam savdosidan jabrlangan davlat.
<b>Majburlash</b>	Majburlanayotgan shaxsni uning irodasiga qarshi yoki irodasini chetlab o'tib, biror-bir harakatni amalga oshirishga yoki biror-bir harakatni bajarishni majburlovchi shaxsning yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun rad etishga undash maqsadidagi jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy zo'rvonlik yoki ularni qo'llash tahdidi.
<b>Odam savdosidan jabrlangan</b>	Odam savdosidan, bunday harakatga rozilik berganligi-bermaganligidan va jinoyat protsessida ishtirok etganligi- etmaganligidan qat'i nazar, jabrlangan jismoniy shaxs.
<b>Odam savdosidan jabrlanganlarni aniqlash</b>	Jismoniy shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan, ularga nisbatan odam savdosi sifatida malakalanadigan xatti-harakatlar sodir etilganligi to'g'risida yoki sodir etish niyati haqida ma'lumotlar olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.
<b>Odam savdosiga qarshi kurash</b>	Odam savdosining oldini olishga, uni aniqlashga, unga chek qo'yishga, uning oqibatlarini kamaytirishga, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatishga doir faoliyat.
<b>Odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxs</b>	Dastlabki aniqlash natijasida odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxs sifatida tan olingan jismoniy shaxs.
<b>Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxs</b>	Mustaqil ravishda yoki bir guruh shaxslar tarkibida odam savdosi bilan bog'liq har qanday harakatni sodir etuvchi jismoniy shaxs, shuningdek, o'z harakatlari bilan odam savdosiga ko'maklashayotgan, xuddi shuningdek, garchi o'z mavqeidan kelib chiqib, to'sqinlik qilishi va qarshi kurashishi shart bo'lsa-da, odam savdosiga to'sqinlik

«Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonunda Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo‘yicha milliy va hududiy komissiyalar, milliy ma‘ruzachi maqomi belgilangan bo‘lib, Vazirlar Mahkamasi va mas‘ul davlat organlarining vakolatlari belgilab berilgan.

Mazkur Qonunning 6-moddasida Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo‘yicha milliy komissiya davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, boshqa tashkilotlarning odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kollegial organdir. U Odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha kichik komissiya va Majburiy mehnatga qarshi kurashish bo‘yicha kichik komissiyadan iborat bo‘lib, komissiyani shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy komissiya davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hududiy bo‘lin-malarining, boshqa tashkilotlarning odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hududiy kollegial organdir. Hududiy komissiyalarning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlardagi (shaharlardagi) faoliyatini tashkil etish tartibi milliy komissiya qarori bilan belgilanadi (7-modda).

Milliy ma‘ruzachi funksiyalarini Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi raisi amalga oshiradi (8-modda).

Odam savdosiga qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligidir. Odam savdosiga qarshi kurashish qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa davlat organlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin (10-modda).

Qonunning 17-moddasiga muvofiq, davlat organlari va muassasalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va

fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, shuningdek, fuqarolar odam savdosiga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlariga yordam ko'rsatishi mumkin.

Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunda odam savdosining oldini olish masalalari, shu jumladan, doimiy monitoring o'tkazish, aholining xavfli vaziyatlardan xabardorligini oshirish, davlat va xususiy ta'lim muassasalarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, yagona ma'lumotlar bazasini yaratish, odam savdosidan jabrlanganlarni aniqlash hamda ularni himoya qilish va ularga yordam ko'rsatish bo'yicha davlat organlarining hamkorligi; shuningdek, voyaga yetmaganlar savdosiga qarshi kurashish xususiyatlari ham muhokama qilinadi.

### **Odam savdosi tushunchasining jinoiy-huquqiy xususiyatlari**

Odam savdosi uchun jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasida belgilangan:

Odam savdosi, ya'ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish – uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) o'g'irlash, zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo'lash orqali;
- b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;
- v) ojiz ahvoldaligi ayblanuvchiga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan;
- g) ayblanuvchiga moddiy jihatdan yoki boshqa jihatdan qaram bo'lgan shaxsga nisbatan;
- d) takroran sodir etilsa yoki xavfli residivist tomonidan;
- e) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- j) xizmat mavqeidan foydalangan holda;
- z) jabrlanuvchini O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan olib o'tgan holda yoki chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turgan holda;

i) qalbaki hujjatlardan foydalangan holda, xuddi shuningdek jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo‘ygan, yashirgan yoxud yo‘q qilib yuborgan holda;

k) inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini olish maqsadida sodir etilgan bo‘lsa – besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi ayblanuvchiga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa;

b) jabrlanuvchining o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa;

v) o‘ta xavfli residivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;

g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa – o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasi dispozitsiyasiga ko‘ra, odam savdosi deganda odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish tushuniladi.

**Jinoyat tarkibi rasmiydir.** Jinoyat bitim tuzilgan paytdan yoki ekspluatatsiya qilish maqsadida kamida bitta jinoiy harakat (yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish) amalga oshirilganda tugallangan hisoblanadi. Ekspluatatsiyaning maqsadi odamni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishda majburiy xususiyatga ega. Shunga e‘tibor qaratilishi lozimki, ayrim kvalifikatsiya belgilarida jinoyatni tugallangan deb topish uchun undagi oqibatlar yuzaga kelishi kerak (masalan, modda 3-qismning b) bandiga ko‘ra jabrlanuvchining o‘limi yuz bergan yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa).

**Jinoyatning ob‘ekti** – bu shaxsning o‘z maqsadlari, manfaatlari va ideallaridan kelib chiqib, o‘zining hayot tarzini va faoliyatini tanlash erkinligi hisoblanadi.

**Jinoyatning ob‘ektiv tomoni** – shaxsni olish-sotish yoki ekspluatatsiya qilish maqsadida uni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish.

**Jinoyat sub‘ekti** – jinoyat sodir etgunga qadar 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs.

**Jinoyatning sub'ektiv** tomoni to'g'ri qasd bilan tavsiflanib, motivi (sabab) – g'arazgo'ylik niyatida sodir qilish. Jinoyatchi shaxsni sotib olayotgani va sotayotgani yoki undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishini biladi, shaxsning shaxsiy erkinligini buzish shaklida ijtimoiy xavfli oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligini oldindan ko'ra oladi va bu harakatlarni amalga oshirishni xohlaydi. Agar odam savdosi yozma yoki og'zaki bitim shaklida oldi-sotdi tarzida amalga oshirilsa, unga ko'ra shaxs bir shaxsdan boshqa shaxsga pul, boshqa moddiy boyliklar (mol-mulk), mulk ko'rinishidagi mukofot olish evaziga o'tkaziladi va xizmatlar, mol-mulkdan yoki pul qarzidan voz kechish va boshqalar bo'ladi, bunda maqsad shaxsni sotib olish yoki sotish ekanligi huquqiy ahamiyatga ega emas. Agar odam savdosi shaxsni ekspluatatsiya qilish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish sifatida sodir etilgan bo'lsa, shaxsni ekspluatatsiya qilish maqsadining mavjudligi jinoiy javobgarlikning zaruriy shartidir. Jinoyatchi shaxsni keyinchalik ekspluatatsiya qilish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish ekanligini isbotlash muhimdir. Bunda ekspluatatsiya maqsadiga yetilganligi yoki yetilmaganligi ahamiyatga ega emas.

### **Jinoiy qilmishlar tushunchalari**

<b>Yollash</b>	ekspluatatsiya qilish maqsadida shaxsni biror-bir faoliyat turi bilan shug'ullanishga jalb etishga qaratilgan faoliyat (ekspluatatsiya ob'ektini qidirish, to'plash, u bilan muzokaralar olib borish va h.k.)ni ifodalaydi.
<b>Tashish</b>	shaxsni olish-sotish bitimi tuziladigan (ijro etiladigan) boshqa shaxsga topshiriladigan joyga yoki undan ekspluatatsiya maqsadida foydalaniladigan joyga yetkazib berish (transportda tashish)ni anglatadi. Bunda yetkazib beriladigan shaxs odam savdosini amalga oshirish uchun mo'ljallanganligi tashuvchiga oldindan ma'lum bo'lishi lozim. Tashish bitta aholi doirasida ham O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqish bilan bog'liq tarzda ham amalga oshirilishi mumkin.
<b>Topshirish</b>	Odamni boshqa shaxsga ekspluatatsiya qilish maqsadida jismoniy tarzda berishda ifodalanadi.
<b>Yashirish</b>	Jabrlanuvchini hokimiyat vakillaridan, qarindoshlaridan yoki uning taqdiridan manfaatdor boshqa shaxslardan har qanday joyda xufiya saqlashda ifodalanadi.
<b>Qabul qilish</b>	shaxsni o'z maqsadlarida ekspluatatsiya qilish uchun egalikka olish (masalan, hadya tariqasida, vaqtincha tekin foydalanish uchun yoki qarz evaziga va h.k.)ni anglatadi, odamni sotib olish hollari bundan mustasno.

**Ekspluatatsiya qilish maqsadlari.** BMTning Odam savdosi to'g'risidagi protokoli ekspluatatsiya shakllarining to'liq bo'lmagan ro'yxatini o'z ichiga oladi, milliy qonunchilikda jinoiy javobgarlikka tortishning minimal standartini belgilaydi. 135-moddaning dispozitsiyasi ham ekspluatatsiya shakllarini cheklamaydi, biroq O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 8-moddasida odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun shaxslarning fohishabozligini ekspluatatsiya qilish yoki shahvoniy ekspluatatsiyaning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar ko'rsatish, qullik yoki qullikka o'xshash an'analar, erksizlik holati yoki tana organlari yoxud to'qimalarni olish, deb tushuntirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi shahvoniy ekspluatatsiya, majburiy mehnat (xizmatlar), qullik va erksizlik holatini tushuntirib o'tadi.

### **Ekspluatatsiya shakllari tushunchalari**

**Fohishabozlikda foydalanish deganda,** odamdan uning haq evaziga nomuayyan doiradagi jinsiy sheriklar bilan shahvoniy munosabatlarga kirishishidan muttasil foydalanish tushuniladi. Boshqa ko'rinishdagi shahvoniy ekspluatatsiya deganda, odamning undan pornografik tasvirlar tayyorlash, buzuvchi harakatlar sodir etish va h.k. maqsadlarda foydalanish uchun berilishi tushuniladi.

**Majburiy mehnat (xizmatlar)** biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlashni anglatadi. Harbiy yoki muqobil xizmat to'g'risidagi qonunlar asosida, favqulodda holat yuz bergan sharoitlarda, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga binoan, qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar majburiy mehnat deb hisoblanmaydi.

**Qullik** o'ziga nisbatan mulk huquqiga xos ayrim yoki barcha huquqlar amalga oshirilayotgan shaxs ahvoli yoki holatini anglatadi.

**Erksizlik holati** shaxsning muayyan omillar majmui ta'siri ostida o'z erkiga xilof ravishda har qanday ish yoki xizmatni bajarishga majbur bo'lganligini anglatadi.

**O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasi 2-qismi** odam savdosi uchun quyidagi kvalifikatsiya belgilarini belgilaydi:

**a) o'g'irlash, zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo'llash orqali**

O'g'irlash deganda, odamni qonunga xilof ravishda, yashirin yoki oshkora qo'lga kiritish va uning erkiga xilof ravishda uni olish-sotish yoki ekspluatatsiya qilish maqsadida boshqa joyga olib ketish tushunilishi lozim.

Zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish deganda, bog'lash, ozodlikdan mahrum etish, urish-do'pposlash, ushlab turishdan boshlab, jabrlanuvchining sog'lig'iga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish, shuningdek, jabrlanuvchining sog'lig'iga ziyon yetkazmagan bo'lsa-da, biroq qo'llanilgan paytda bunday ziyon yetkazishga real imkoniyat tug'dirgan zo'rlikkacha bo'lgan har qanday majburlash tushunilishi lozim.

Boshqa shakldagi majburlash deganda jabrlanuvchining yoki uning yaqin kishilarining mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud shikast yetkazish yoki nobud qilish bilan tahdid qilish, jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilari obro'sini to'kadigan ma'lumotlarni yoki ularning huquqlari yoki qonuniy manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlarni tarqatish yoxud jabrlanuvchini ayblanuvchining u yoki bu ko'rsatmalarini bajarishga majbur etadigan vaziyatni vujudga keltiradigan har qanday harakatlarni amalga oshirish tushunilishi kerak.

**b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan**

Jabrlanuvchilar ikki yoki undan ortiq bo'lsa, ularning jinsi, yoshi yoki jismoniy holati muhim emas.

**v) ojiz ahvoldaligi ayblanuvchiga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan**

Spirтли ichimliklar, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ta'siri ostida vujudga kelgan, jabrlanuvchi atrofdagi vaziyatni anglolmaydigan darajada mastlik holatini ojiz ahvolda deb tan olinishi mumkin, bunda jabrlanuvchini kim bunday holatga keltirganligi ahamiyatga ega emas.

**g) ayblanuvchiga moddiy jihatdan yoki boshqa jihatdan qaram bo'lgan shaxsga nisbatan**

Moddiy qaramlik deganda, xususan, jabrlanuvchi to'liq yoki qisman ayblanuvchining qaramog'idaligi, qarzdorning kreditorga qaramligi va boshqalar tushuniladi.

Boshqa qaramlik deganda shuni tushunish lozimki, jabrlanuvchi ayblanuvchiga nisbatan har qanday nomoddiy qaramlikda bo‘ladi (masalan, oilaviy munosabatlar, bo‘ysunuvchi xodimning rahbarga, o‘quvchining o‘qituvchiga qaramligi va boshqalar).

#### **d) takroran yoki xavfli residivist tomonidan**

Takroriy jinoyat – shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi.

Xavfli residiv jinoyat – ilgari hukm qilingan jinoyatiga o‘xshash jinoyat sodir etgan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi.

#### **e) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib**

Jinoyat sodir etishda bevosita ishtirok etgan ikki yoki undan ortiq shaxslarning harakatlari mazkur kvalifikatsiya belgisini tashkil qiladi, shu bilan birga, ularning har biri jinoyatning ob‘ektiv tomonini bajarishi shart emas, eng muhimi, ularning yakuniy qasdini bilishi va uni amalga oshirish uchun choralar ko‘rishi.

#### **j) xizmat mavqeidan foydalangan holda**

Xizmat mavqeidan foydalanish deganda mansabdor shaxsning o‘z mansab vakolatlaridan foydalangan holda odam savdosining ob‘ektiv tomonini tashkil qiluvchi har qanday jinoiy qilmishlar sodir etishi tushuniladi.

#### **z) jabrlanuvchini O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan olib o‘tgan holda yoki uni chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turgan holda.**

Bunda jabrlanuvchining O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali olib o‘tilishi yoki uning chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turilishi tushunilishi kerak, ya’ni ayblanuvchi jabrlanuvchini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga yoki uning hududiga Davlat chegarasi orqali (qonuniy yoki qonunga xilof tarzda) yoki boshqa tarzda o‘tkazadi yoxud shaxsni uning erkiga zid ravishda xorijiy davlat hududida ushlab turadi. Jabrlanuvchini chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turish uni O‘zbekiston Respublikasi hududiga qaytish imkoniyatidan mahrum qilishdan iborat.

**i) qalbaki hujjatlardan foydalangan holda, xuddi shuningdek, jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo‘ygan, yashirgan yoxud yo‘q qilib yuborgan holda**

Odam savdosini sodir etishda, odatda, qalbaki hujjatlardan yoki boshqa shaxs nomidagi hujjatlardan ko‘pincha yanglishtirish uchun yoki voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning yoshini yashirish uchun foydalaniladi.

**k) inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini olish maqsadida sodir etilgan bo‘lsa**

Odamlardan (tirik yoki o‘lgan) organlar yoki to‘qimalarni olish – tegishli milliy qonunchilikni buzgan holda, shaxsdan o‘z irodasiga qarshi donor sifatida foydalanish tushuniladi. Bunday odam savdosi jinoyatlari donor a‘zolari va to‘qimalarining yetishmovchiligi sababli sodir etilmoqda. Bunday harakatlarga tibbiy ma‘lumotga ega bo‘lgan mutaxassis yoki tibbiyot oliygohlari talabasi doimo jalb etiladi. Inson organlarining transplantatsiyasi, xususan, yurak, jigar, buyrak va o‘pka, inson to‘qimalari – ko‘z (shox parda va sklera), teri (teri, dermis), mushak-skelet (suyaklar, tog‘ay, paylar), yurak-qon tomir (yurak klapanlari, qon tomir kanallari) va tug‘ruqdagi yo‘ldosh to‘qimalari transplantatsiyasini o‘z ichiga oladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasi 3-qismiga** ko‘ra, odam savdosi uchun quyidagi kvalifikatsiya belgilarini belgilaydi:

a) o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi jinoyatchiga ma‘lum bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa, odam savdosi jinoyat sodir etishdan oldin jabrlanuvchining yoshini bilgan (u qarindoshi, qo‘shnisi, tanishi bo‘lgan) yoki jabrlanuvchi yoshini ko‘rinishidan aniq ma‘lum (bolalar savdosi) bo‘lishi lozim;

b) jabrlanuvchining o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelgan odam savdosi ob‘ekti sifatida ishtirok etuvchi shaxsning o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga ehtiyotsizlik oqibatida kelib chiqqan taqdirda; boshqa jiddiy oqibatlarga, xususan, jabrlanuvchining o‘z joniga qasd qilishi, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasallik yoki OITS bilan kasallanishi, ruhiy kasalliklar va boshqalar kirishi mumkin;

v) o'ta xavfli residivist tomonidan qasddan yangi jinoyat sodir etilganida sodir etilgan bo'lsa, ya'ni, besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya'ni: ilgari o'ta og'ir jinoyati uchun yoki ikki marta og'ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o'ta og'ir jinoyat sodir etilishi; yoki ilgari og'ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldin-keyinligidan qat'i nazar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og'ir jinoyat sodir etishi o'ta xavfli residiv jinoyat deb topiladi;

g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, jinoyat sodir etish maqsadida ikki yoki undan ortiq shaxsning barqaror birikmasiga ega bo'lgan guruh tomonidan sodir etilgan bo'lsa. Guruhning barqarorligi, xususan, jinoiy faoliyatning oldindan rejalashtirilganligi, jinoiy qasdni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vositalarning tayyorlanishi, ishtirokchilarni tanlash, yollash va ular o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi, jinoyatni yashirish choralarini ta'minlash, guruhda o'rnatilgan intizomga va tashkilotchining ko'rsatmalariga bo'ysunishlik jinoiy guruhning uyushganligidan dalolat beradi. Ayblov xulosasi va sud hukmi o'zida jinoiy guruh qaysi asoslarga ko'ra uyushgan deb topilganligini aniq aks ettirishi kerak.

### **3 §. ODAM SAVDOSIDAN JABRLANGANLARNI IDENTIFIKATSIYA QILISH**

#### **Odam savdosidan jabrlanganlarni identifikatsiya qilish.**

Jabrlanuvchini identifikatsiya qilish – bu shaxsni tegishli organlar tomonidan odam savdosidan jabrlangan (odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilingan) sifatida identifikatsiya qilish hamda mazkur shaxsga yordam ko‘rsatish va himoya qilish uchun yuborishga olib keladigan jarayon. Odam savdosidan jabrlanganlar bilan faqat maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan xodimlar va mutaxassislar ishlay oladilar.

Odam savdosidan jabrlangan shaxsni identifikatsiya qilish jinoyatning turli bosqichida (yollash, mamlakat ichida tashish, davlat chegarasidan olib o‘tish yoki chet elda, topshirish, ekspluatatsiya qilish paytida) yoki u qochib ketganidan yoki qutqarilganidan keyin sodir bo‘lishi mumkin. Odam savdosidan jabrlangan o‘zini jabrlanuvchi sifatida tanishtirib, huquq-tartibot idoralariga murojaat qilishi dargumon. Shu bois, nafaqat ichki ishlar, prokuratura va sudlar, balki odam savdosidan jabrlangan yoki potensial qurboni<sup>36</sup> bilan birinchi aloqada bo‘lishi mumkin bo‘lgan migratsiya, chegara, bojxona xizmatlari xodimlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari, ta’lim va tibbiyot muassasalari, hokimliklar va h.k.ni bunday holatlarni aniqlashga o‘rgatish kerak. Rasmiy aniqlash qonunchilikda belgilanadigan mas’ul organlar tomonidan amalga oshiriladi. Odam savdosidan jabrlangan shaxsni identifikatsiya qilish chegarasi turli mamlakatlarda turlicha, shuningdek, ularning huquqlari va himoyalanih chegarasi ham turlidir.

Odam savdosidan jabrlanganlarning huquqlarini xalqaro va milliy qonunchilik doirasida himoya qilish tegishli tarzda identifikatsiya qilishni talab qiladi. Odam savdosidan jabrlanganing manipulyatsiya, aldash bilan va ko‘pincha odam o‘g‘irlash yo‘li bilan sotilgan va fohishabozlikka majburlangan yosh ayollar umume’tirof etilgan stereotipi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa vaziyatlarda ham jabrlanuvchi bo‘lishi mumkinligini anglab yetishiga to‘sqinlik qilib, oqibatda odam savdosidan jabrlanganlar sifatida ko‘pincha erkaklar e’tirof etiladi. Odam savdosidan jabrlanganlar uysizlar yoki ijtimoiy izolyatsiya qilingan jamoalarda yashovchi

odamlar orasida topilishi mumkin; ya'ni, etnik ozchiliklar, migrantlar va qochqinlar orasida; aqliy va jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar orasida; oiladagi zo'ravonlik va boshqa jinoyatlardan jabrlanganlar orasida; giyohvandlikka chalingan bo'lgan odamlar orasida. Zaif odamlar odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan nishonga olinadi. Biroq, oliy ma'lumotli, ish bilan ta'minlangan va moddiy ta'minlangan shaxslar, huquqni muhofaza qiluvchi va sud tizimi xodimlarining qarindoshlari ham odam savdosi qurboni bo'lishlari mumkin.

**Odam savdosining alomatlari.** Odam savdosini aniqlash ancha murakkab masala. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar o'zlarining jinoiy qilmishlarini aniqlashni qiyinlashtirishga harakat qiladilar. Odam savdosi bilan bog'liq barcha holatlar bir xil bo'lmaydi va odam savdosining alomatlari har bir holatda farq qilishi mumkin. Odam savdosi jinoyati tarkibini (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasi) o'rganib chiqqach, ushbu jinoyatning oddiy belgilariga ham e'tibor qaratish lozim.

**Odam savdosidan jabrlangan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadigan eng keng tarqalgan alomatlar**

**Odam savdosiga uchragan odamlar quyidagi holatlarda bo'lishlari mumkin:**

- o'z xohishlariga qarshi ishlashga majbur deb hisoblashlari
- ish joyini tark etish imkoniyatiga ega bo'lmasligi
- o'z joyini o'zgartirishlari kuzatilayotganini ishora qilinishi
- keta olmasligini his qilishlari
- qo'rquv yoki xavotirni his qilishlari
- o'zlariga yoki yaqinlariga nisbatan zo'rlik yoki zo'ravonlik tahdidlariga duchor bo'lishlari
- kaltaklanish natijasida paydo bo'lgan jarohatlari bo'lishi
- muayyan turdagi ishlarga xos bo'lgan yoki nazorat choralari bilan bog'liq jarohatlar yoki nuqsonlar bo'lishi
- nazorat choralari natijasida kelib chiqqandek ko'rinadigan jarohatlarga ega bo'lishi
- hokimiyat vakillariga ishonmasligi
- hokimiyat vakillariga topshirilish tahdididan qo'rqishlari
- immigratsiya maqomini oshkor qilishdan qo'rqishlari
- boshqa birovda turgan pasportlari yoki boshqa shaxsini tasdiqlovchi yoki yo'lovchi hujjatlaridan mahrum qilinishi

- qalbaki shaxsni tasdiqlovchi guvohnoma yoki yo‘lovchi hujjatlari
- odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan yoki u joy bilan bog‘langan joyda joylashgan bo‘lishi
- mahalliy tilni bilmasligi
- uyi yoki ish manzilini bilmasligi
- boshqalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilganda, ular uchun javob berishga ruxsat berishlari, go‘yo ularga kimdir ko‘rsatma bergandek harakat qilishlari
- ma‘lum sharoitlarda ishlashga majbur bo‘lishi
- jazo shaklida intizomiy jazoga tortilishi
- ish sharoitlarini muhokama qila olmasligi
- kam to‘lov olishlari yoki umuman olmasliklari
- o‘z daromadlaridan foydalana olmasligi
- uzoq vaqt davomida haddan tashqari uzoq ish soatlariga ega bo‘lishi
- dam olish kunlari bo‘lmasligi
- kambag‘al yoki noqulay sharoitlarda yashashlari
- sog‘liqni saqlash xizmatidan foydalana olmasligi
- ijtimoiy o‘zaro muloqotlarning cheklanganligi yoki umuman bo‘lmasligi
- o‘z oilalari yoki bevosita atrofida gildardan boshqa odamlar bilan muloqot qilish imkoniyati cheklangan bo‘lishi
- boshqalar bilan erkin muloqot qila olmasligi
- o‘zlarini majburiyat bilan bog‘langan deb his qilishlari
- qaram holatda bo‘lishi
- ko‘pincha odam savdosi manbasi sifatida ko‘riladigan hududdan kelib chiqishi
- ularning mamlakatga ko‘chib o‘tishlari vositachilar tomonidan moliyalashtirilganligi sababli, ular pulni belgilangan joyda ishlash yoki xizmat ko‘rsatish orqali qaytarishlari kerak deb hisoblashlari
- yolg‘on va‘dalar asosida harakat qilishlari

**Odam savdosiga uchragan odamlar quyidagi holatlarda bo‘lishlari mumkin:**

- Ota-onalar yoki vasiylar bilan uchrashishi imkoni bo‘lmasligi
- Qo‘rqitilgan ko‘rinishi va tengdoshlariga xos bo‘lmagan tarzda o‘zini tutishi
- Ishdan tashqari vaqtda tengdosh do‘stlari bo‘lmasligi
- Ta‘lim olish imkoniyati bo‘lmasligi
- O‘yin o‘ynashga vaqti bo‘lmasligi
- Boshqa bolalardan alohida nomaqbul sharoitlarda yashashi
- «Oila»ning boshqa a‘zolaridan alohida ovqatlanishi
- Faqat qoldiq ovqatlar yeyishi
- Bolalar uchun mos bo‘lmagan ishlarga jalb qilinishi

- Kattalar hamrohligisiz harakatlanishi
- Qarindoshlari bo‘lmagan odamlar bilan guruh bo‘lib harakatlanishlari

Odam savdosidan jabrlangan bolalarni aniqlash jarayoni ularning yoshi va ehtiyojlariga qarab farqlanadi. Jabrlanuvchilar shaxsini aniqlash jarayonida agar zarur bo‘lsa, ular tushunadigan tilga tarjimon bilan ta‘minlanishi lozim.

### **Odam savdosidan jabrlanganlarning huquqlari va ehtiyojlari.**

#### **Odam savdosidan jabrlanganlarni himoya qilish va qo‘llab- quvvatlash.**

Odam savdosidan jabrlanganlarga yordam berish va ularni himoya qilishning xalqaro standartlari turli xalqaro shartnoma va kelishuvlarga, shuningdek, turli xalqaro tashkilotlar va soha mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan tavsiya va yo‘riqnomalarga asoslanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Odam savdosi protokoli odam savdosidan jabrlanganlarning huquqlarini himoya qilish va ularga yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bir qator qoidalarni o‘z ichiga oladi. Hujjatning 6-moddasiga ko‘ra, a‘zo davlatlar quyidagilarga majburdirlar:

- odam savdosi bilan bog‘liq ma‘lumotlarning maxfiyligini va jabrlanuvchilarning shaxsiy hayoti daxlsizligini himoya qilishni ta‘minlashga;

- jabrlanuvchilarga sud jarayonlari va ularning ishlari bilan bog‘liq huquqlar to‘g‘risida ma‘lumot berish hamda ular tushunadigan tilda jinoyat protsessida ishtirok etish imkoniyatini berishga;

- odam savdosidan jabrlanganlarni jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, ayniqsa, tegishli boshpana, tibbiy, psixologik va moddiy yordam hamda ishga joylashish, ta‘lim va malaka oshirish imkoniyatlarini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rib chiqishga;

- jabrlanuvchilarning, shu jumladan, bolalarning alohida ehtiyojlarini hisobga olish va ularning xavfsizligini ta‘minlashga;

- jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplash choralari ko‘rishga;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi (IHOKB) Inson huquqlari va odam savdosi bo‘yicha Tavsiya etilgan tamoyillar va yo‘riqnomalarni ishlab chiqdi<sup>6</sup>. Ushbu standartlar davlatlar, xalqaro

---

<sup>6</sup> ИХОКБ, Инсон ҳуқуқлари ва одам савдоси бўйича Тавсия етилган тамойиллар ва йўриқ номалар (2002).

tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining odam savdosiga qarshi kurashish va jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish borasidagi harakatlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tavsiya va tamoyillar odam savdosiga qarshi kurashish, jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash bo'yicha milliy strategiya va dasturlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ular odam savdosi bilan bog'liq barcha choralarda inson huquqlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydilar.

Quyidagi tavsiya etilgan tamoyillar (7–9, 11 tamoyillar) odam savdosidan jabrlanganlarni himoya qilish va ularga yordam ko'rsatishga taalluqlidir:

7. Odam savdosidan jabrlanganlar tranzit yoki uchinchi mamlakatlarga noqonuniy kirganliklari yoki u yerda yashaganliklari yoki noqonuniy faoliyatga aloqadorliklari uchun hibsga olinmaydilar, ayblanmaydilar yoki jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar, agarda bunday aloqadorlik odam savdosi jabrlanuvchilari sifatidagi holatining bevosita natijasi bo'lsa.

8. Davlatlar odam savdosidan jabrlanganlarni keyingi ekspluatatsiya va zarar ko'rishdan himoyalanihini hamda tegishli jismoniy va ruhiy salomatlik bilan bog'liq xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi kerak. Bunday himoya va xizmatlar odam savdosidan jabrlanganlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish qobiliyati yoki xohishiga bog'liq bo'lmasligi kerak.

9. Odam savdosida gumon qilingan shaxslarga nisbatan har qanday jinoiy, fuqarolik yoki boshqa sud ishlarini yuritish chog'ida odam savdosidan jabrlanganlarga huquqiy va boshqa yordam ko'rsatilishi shart. Sud jarayoni davomida davlatlar jabrlanuvchilar va guvohlarni himoya qilish va vaqtincha yashashga ruxsat berishlari shart.

11. Qabul qiluvchi davlat ham, kelib chiqqan davlat ham odam savdosidan jabrlanganlarning xavfsiz (va iloji bo'lsa, ixtiyoriy) qaytishini kafolatlashi shart. Odam savdosidan jabrlanganlarga repatriatsiya ularning xavfsizligi va/yoki oilalari xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi, deb hisoblash uchun oqilona asoslar mavjud bo'lgan hollarda repatriatsiyaga huquqiy muqobil variant taklif qilinishi kerak.

**Xavfsizlikka tahdidni baholash.** Mas'ul ichki ishlar xodimlari odam savdosidan jabrlangan, uning oilasi, yaqinlari va ularga yordam ko'rsatayotgan shaxslarning xavfsizligiga tahdidni baholashi shart. Imkon qadar, odam savdosidan jabrlanganlarni identifikatsiya qilish va jinoiy (sud) jarayoni davomida ularni kuzatuvchi (hamroh) bilan ta'minlashlari kerak (iloji bo'lsa, ular jabrlanuvchilar tanlagan shaxs bo'lgani ma'qul, yoki o'qitilgan psixolog, ijtimoiy soha xodimi, zarur hollarda ichki ishlar xodimi).

### **Odam savdosidan jabrlanganlarni qayta yo'naltirishning xalqaro mexanizmi.**

Xalqaro qayta yo'naltirish mexanizmi odam savdosidan jabrlanganlar milliy chegaralarni kesib o'tishida ularni himoya qilish va ularga yordam ko'rsatishga mo'ljallangan kelishuvlar, chora-tadbirlar va amaliyotlar tizimidir. Ushbu mexanizm jabrlanuvchilarga himoya va yordam, jumladan, adliya, tibbiy va psixologik yordam, ijtimoiy xizmatlar hamda keyingi ekspluatatsiyaning oldini olish va chek qo'yishdan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan.

Ko'pgina davlatlar o'zlarini odam savdosiga qarshi kurashish va jabrlanuvchilarni himoya qilishda hamkorlik qilishga majburiyat yuklovchi kelishuv va protokollar tuzganlar. Mamlakatlar odam savdosidan jabrlanganlarni aniqlash, himoya qilish va ularga yordam berish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun mas'ul bo'lgan maxsus agentlikni belgilaydi yoki milliy organlar va mexanizmlarni yaratadi.

Odam savdosidan jabrlanganlarga murojaat qilishning xalqaro mexanizmi ushbu jinoyatga qarshi kurashish va jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jabrlanuvchilarning qaerga ko'chib o'tayotganidan qat'i nazar, zarur yordam va ko'mak olishini ta'minlashga yordam beradi va kelib chiqish, tranzit va boradigan mamlakatlar o'rtasidagi bunday mexanizmlar axborot almashinuvini tezlashtiradi va odam savdosi holatlarini aniqlash samaradorligini oshiradi.

**Odam savdosidan jabrlangan shaxs bilan so'rov o'tkazish.** Odam savdosidan jabrlangan shaxs bilan so'rov o'tkazishdan maqsad tergov harakatlari

amalga oshirayotgan voqea to'g'risida imkon qadar ko'proq ma'lumot va ishonchli guvohlik ko'rsatuvlarini olishdir. Bunda jabrlanganlar va ularning yaqinlarining salomatligi va shaxsiy xavfsizligini ta'minlash huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining ustuvor va asosiy vazifasi ekanligini unutmazlik juda muhim. Jabrlanuvchi yaqinda jarohatni boshdan kechirgan, shuning uchun ham jabrlanuvchi bilan suhbatlashish faqat asosiy ehtiyojlar qondirilgandan so'ng va jabrlanuvchi gapirishga tayyorligini bildirganida amalga oshirilishi mumkin.

Shuni inobatga olish kerakki, odam savdosidan jabrlanganlar ko'pincha turli sabablarga ko'ra, o'z ahvolini yashirishga harakat qiladilar: odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar va ularning jinoiy sheriklaridan qo'rqishadi; ularning qarindoshlari, do'stlari va tanishlari ekspluatatsiya qilinganligi haqida bilib qolmasligi, ularning ishlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinib qolishidan xavotirlanishi; qo'rqitilganligi – chunki ularning o'zlari jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb qilingan (noqonuniy migratsiya, qalbaki hujjatlardan foydalanish, giyohvand moddalar savdosi, o'g'irlik va boshqalar). Bundan tashqari, ular hokimiyat vakillariga nisbatan ishonchi komil emas, ishonchsizlik bilan va yovga qaragandek qaraydigan odamlar toifasiga kiradi. Odam savdosidan jabrlanganlar bilan suhbatlar, agar jabrlanuvchilarning iltimosi boshqacha bo'lmasa, jabrlanuvchilar bilan bir jinsdagi tergovchilar (zarurat bo'lganda, boshqa mutaxassislar, masalan, psixologlar) tomonidan o'tkazilishi lozim. Ko'ngilli tarjimonlardan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki ular odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar yoki ularning sheriklari bo'lishi mumkin.

Odam savdosidan jabrlangan shaxs bilan suhbatlashish uchun uning shubha va xavotirga o'rin yo'qligiga ishontirish va tinchlantirishga yordam beradigan norasmiy muhit va sharoit yaratish kerak. Unga zarar yetkazmaslik, balki do'stona muloqotni yaratish uchun yordam berish, ma'lumot berish, tergov jarayonini, suhbatni o'tkazish tartibini va huquqlarini tushuntirish, uning ahvolini kuzatib borish, uni stereotipik tarzda qabul qilmaslik («o'zi shunga rozi bo'lgan», «ularning barchasi shunaqa» va boshqalar), zarur o'zaro tushunishni o'rnatishga alohida e'tibor berish, ishonchiga kirish va psixologik aloqa o'rnatish, tamomila ochiq va halol bo'lish, hamdardlik va

empatiya namoyish qilish, nafaqat ogʻzaki, balki ogʻzaki boʻlmagan muloqotni ham kuzatish zarur (ohang, intonatsiya, ovoz balandligi, gavda holati, qoʻllar, koʻzlar va boshning harakatlari, oynaning aks ettirishidan foydalanish mumkin (aloqani oʻrnatish uchun jabrlanuvchining holati va imo-ishoralariga taqlid qilish va aksincha, agar jabrlanuvchi oʻzini tutish va imo-ishoralari orqali taqlid qilsa, u holda aloqa oʻrnatilgan degani).

Soʻrov jabrlanuvchining versiyasining asosiy nuqtalarini va har bir bosqichda jinoyatni sodir etish usulini aniqlashga qaratilgan boʻlishi kerak. Agar jabrlanuvchi gapira boshlasa, unga oʻz versiyasini aytib berish imkoniyati yaratilishi kerak. Bunday hollarda kerakli maʼlumotlar oqimini toʻxtatmaslik uchun jabrlanuvchining versiyasini toʻxtatmaslik yoki shubha ostiga qoʻymaslik kerak.

Odam savdosi faktini tasdiqlovchi maʼlumotlar va dalillarni aniqlashda ochiq savollardan boshlash tavsiya etiladi (faqat «ha» yoki «yoʻq» emas, batafsil javobni talab qiladigan savollar). «Nima uchun» bilan boshlanadigan savollarni berish (bunday savollar hukmni nazarda tutadi) va odam savdosidan jabrlanganliklarini soʻrash tavsiya etilmaydi, chunki ular koʻpincha bunday jinoyat qurboni boʻlganliklarini ham bilishmaydi. Keyinchalik, tegishli qoʻshimcha maʼlumotlarni olish uchun aniqlovchi savollar (kim? nima? qaerda? kabi savollar) beriladi. Savollar turli holatlar va dalillarni aks ettirish uchun moslashtirilgan boʻlishi kerak. Odam savdosining barcha belgilarini, shu jumladan, zoʻravonlik shakllarini aniqlash muhim. Agar javoblar shaxsning tanlash erkinligi cheklangan yoki nazorat qilinganligini koʻrsatsa, u shaxs odam savdosidan jabrlangan boʻlishining ehtimoli katta.

Soʻrovning yakuniy qismida jabrlanuvchining gumonlanuvchilarga nisbatan gumon qilinayotgan jinoyatlar jami natijasida unga yetkazilgan jismoniy va ruhiy zarar haqidagi tushuntirishlari aks ettirilishi kerak. Jinoyatlarning taʼsiri toʻgʻrisidagi maʼlumotlar jabrlanuvchining jinoyatning oʻziga, zoʻravonlikka, ekspluatatsiyaga munosabati tafsilotlarini, shuningdek, taʼsirining hayot sifatiga, shu jumladan, oʻzi va yaqinlari uchun qoʻrquv darajasi, oʻz qadr-qimmatini va qadriyati, oʻz hayotini mustaqil ravishda olib borish qobiliyati va boshqalar kabi tafsilotlarni oʻz ichiga olishi kerak.

**Odam savdosidan jabrlangan shaxslarning xatti-harakatlari.** Odam savdosidan jabrlanganlar ko‘pincha odam savdosi jarayonida ko‘rilgan turli jismoniy va ruhiy jarohatlar ta’siridan aziyat chekishadi. Ular ko‘pincha postravmatik ruhiy kasalliklarni keltirib chiqaradigan psixologik jarohatlar olishadi.

Odam savdosidan jabrlanganlar ko‘pincha o‘zini juda toliqqan his qiladilar, yo‘nalishni aniqlash va diqqatni jamlashda qiynaladilar va huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari, boshqa idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan hamkorlik qilishni istamaslik va hatto do‘stona bo‘lmagan munosabatni namoyish qilishadi. Umumiy nochorlik, sharmandalik, aybdorlik va kamsitish hissini boshdan kechirishadi, shok va inkor, fobiya, vahima hujumlari, tashvish, uyqu buzilishi yoki ovqatlanish buzilishidan aziyat chekishadi. Ko‘pincha odam savdosidan jabrlanganlar vaziyatni boshqarish yoki undan «chiqish» uchun giyohvand moddalar va/yoki spirtli ichimliklarga ruju qo‘yishi mumkin. Spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste’mol qilishga jalb qilish ham odam savdosi bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan qo‘llaniladigan nazorat usuli hisoblanadi<sup>7</sup>.

Odam savdosidan jabrlangan shikastlangan shaxslar xotira yo‘qolishi odatiy hol, natijada suhbatning turli nuqtalarida jabrlanuvchining ko‘rsatuvlarida nomuvofiqlik va o‘zgarishlar, nima bo‘lganini aniq aytib bera olmaslik, kiyim-kechak, xona yoki transport vositalarini tasvirlab bera olmaslik, ism-shariflar, unvonlar, manzillar, boshqa tafsilotlarni eslay olmaslik bilan ajralib turadi (ular travmatik hodisaning asosiy faktlarini eslab qolishlari mumkin, ammo nozik mayda tafsilotlarni emas). Ehtimol, hayot uchun eng xavfli yoki qo‘rqinchli voqealar jabrlanganning xotirasida muhrlanib qolgan bo‘lishi mumkin.

Chet elda odam savdosidan jabrlanganlar ko‘pincha deportatsiya qilinishdan yoki qamoqqa tushishdan qo‘rqishadi, shuning uchun ular hukumat vakillariga, ayniqsa, huquq-tartibot va hukumat vakillariga ishonmasliklari mumkin. Xuddi shuningdek, odam savdosi bilan shug‘ullanuvchilar jabrlanganlarni agar ular haqida

---

<sup>7</sup> АҚШ Соғлиқни сақлаш ва инсон хизматлари департаменти. Факт варақаси: Одам савдоси-дан жабрланганларни аниқлаш. Қуйидаги ҳавола орқали кўриш мумкин <https://www.acf.hhs.gov/archive/otip/fact-sheet/fact-sheet-identifying-victims-human-trafficking>.

politsiyaga xabar qilsalar, politsiya jabrlanuvchini fohishalik yoki noqonuniy xatti-harakat, giyohvand moddalar savdosi, o'g'irlik va boshqa noqonuniy xatti-harakatlari (foydalanish shakliga qarab) uchun qamoqqa olinishlariga ishontirishlari mumkin, vaholanki, ular jabrlanuvchilarning irodasini bo'ysundirishda foydalanilgan ta'sir usullari edi (BMTning Odam savdosi to'g'risidagi protokolining 3-moddasiga binoan, kuch ishlatish bilan tahdid qilish yoki kuchni ishlatish yoki majburlashning boshqa shakllari, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, vakolatni yoki zaiflik holatini suiiste'mol qilish yo'li bilan yoki boshqa shaxsning nazorati ostidagi shaxsning roziligini olish uchun pora, to'lov yoki imtiyozlar bilan) yoki ular mamlakatda noqonuniy bo'lganligi sababli, odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar va ularning sheriklari ozod bo'lib qoladilar. Jabrlanuvchilar odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar va ularning sheriklari jabrlanuvchilarga, jabrlanuvchilarning oila a'zolariga yoki qarindoshlariga zarar yetkazishi mumkinligidan qo'rqishadi.

Boshqa tomondan, jabrlanuvchida Stokgolm sindromi – odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxsga nisbatan ko'nikish, hamdardlik, bog'liqlik, mehr-muhabbat hissi rivojlanishi mumkin. Stokgolm sindromi – bu travmatik va haqoratli vaziyatga psixologik reaksiya. Bu jabrlanuvchi uni o'g'irlaganlar bilan hamkorlik qiladi yoki ularning harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi degani emas. Bu odam savdosidan jabrlanganlarning tiklanishi va qayta integratsiyalashuvi uchun muhim to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan kurash mexanizmidir. Omon qolganlarni qo'llab-quvvatlash, tushunish va ixtisoslashtirilgan yordam ko'rsatish ularga boshdan kechirgan psixologik va hissiy travmalarni yengishga yordam berish uchun muhimdir.

Odam savdosidan jabrlanganlar bilan ishlashda xodimlar va mutaxassislar, ularga ishonchsizlik bildirmasdan, ayblamasdan, qoralamasdan yoki ziddiyatga kirishmasdan, o'zlarini xotirjam tutishlari kerak. Jabrlanuvchini jiddiy qabul qilish va yordam taklif qilish (masalan, sizga suv olib kelib berishim mumkin) va umumiy savollar (masalan, sovuq qotmadingizmi?) orqali uni tinchlantirishga va ishonchini qozonishga harakat qilish juda muhimdir. Agar jabrlanuvchi tinchlanib olib gapira olmasa (masalan, jabrlanuvchi o'zini tajovuzkor tutsa, hech narsani eslamasa), yordam uchun mutaxassislarga murojaat qilish va suhbatni faqat yordam

ko'rsatadigan mutaxassislar nima bo'lganini aytib berishga tayyorligini bildirganda davom ettirish ma'qulroqdir.

**O‘zbekiston Respublikasida odam savdosidan jabrlanganlarni yoki odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilingan shaxslarni identifikatsiya qilish va ularni qayta yo‘naltirish tartibi.**

Odam savdosidan jabrlanganlarni yoki odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinganlarni aniqlash va ularni qayta yo‘naltirish tartibi

«Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonun va Vazirlar Mahkamasining «Odam savdosidan jabrlanganlarni yoki odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni milliy darajadagi qayta yo‘naltirish tizimini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori bilan belgilangan (jabrlanganlarni qayta yo‘naltirish bo‘yicha VMQ)<sup>8</sup>. Asosiy tushunchalar jabrlanganlarni qayta yo‘llash bo‘yicha VMQ tomonidan belgilanadi.

<b>Dastlabki identifikatsiya</b>	jismoniy shaxsni odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxs deb tan olish to‘g‘risida qaror qabul qilish maqsadida ma’lumotlarni olishga, o‘rganishga va baholashga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi
<b>Suhbat</b>	odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni aniqlash, ularga tegishli yordamlarni ko‘rsatish uchun odam savdosidan jabrlangan shaxs sifatida e’tirof etishga hamda ularning «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunda ko‘rsatilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan suhbat
<b>Suhbat olib boruvchi va qayta yo‘naltirish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis</b>	«Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasida ko‘rsatilgan davlat organlari va ularning hududiy bo‘linmalarining maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega vakili hisoblanadi
<b>Qayta yo‘naltirish</b>	odam savdosidan jabrlangan, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni tezkor, sifatli va malakali yordam ko‘rsatilishiga hamda himoyaga olishga yo‘naltirish
<b>Yakuniy identifikatsiya</b>	shaxsni odam savdosidan jabrlangan deb tan olish yoki tan olishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilish

**Identifikatsiya qilish jarayoni.** Odam savdosidan jabrlanganlarni identifikatsiya qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi: dastlabki va yakuniy

<sup>8</sup> Vazirlar Mahkamasining 2021-йил 8-февралдаги қарори № 60-сонли “Одам савдосидан жабрланган ёки одам савдосидан жабрланган деб тахмин қилинаётган шахсларни миллий даражадаги қайта йўналтириш тизimini тасдиқлаш тўғрисида”.

identifikatsiya

qilish.

## Odam savdosidan jabrlanganlar yoki odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilingan shaxslarni identifikatsiya qilish va ularni qayta yo‘naltirish sxemasi

Bosqichlar	Sub’ektlar	Chora-tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Odam savdosidan jabrlangan jismoniy shaxs yoki bu haqda xabardor bo‘lgan boshqa shaxslar	Vakolatli organlar va tashkilotlarga murojaat qiladi yoki xabar beradi.	Iloji boricha tezroq
2-bosqich	Vakolatli organlar va tashkilotlar	1. Odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxsni dastlabki identifikatsiya qilish uchun rozilik oladi. 2. Dastlabki identifikatsiyani amalga oshiradi. 3. Odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxsni tan olish yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.	5 kun ichida
3-bosqich	Vakolatli organlar va tashkilotlar	1. Odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilingan shaxs sifatida uning huquqlarini tushuntiradi. 2. Odam savdosidan jabrlanganlikda taxmin qilingan shaxsga yordam ko‘rsatadi va agar u chet davlatda bo‘lsa, vataniga qaytarish choralarini ko‘radi. 3. Odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilingan shaxsga huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishni taklif qiladi.	Qaror qabul qilinganidan keyin
4-bosqich	Odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilingan shaxs	Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishga rozilik berishi yoki bermasligi to‘g‘risida vakolatli organga xabar beradi.	Murojaat qilingan kundan boshlab kamida 30 kun
5-bosqich	Huquq-tartibot idoralari	Odam savdosiga aloqador shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvlar va dastlabki tergov o‘tkazadi.	Shaxsning roziligi bilan O‘zbekiston Respublikasi JPK doirasidagi muddatlar
6-bosqich	Vakolatli organ	1. To‘plangan hujjatlarni yashash joyidagi odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish hududiy komissiyasiga yuboradi. 2. Hujjatlarni ixtisoslashgan muassasalarga yuboradi.	1. Qaror qabul qilinganidan keyin 2. Shaxsning roziligidan keyin
7-bosqich	Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish hududiy komissiyasi	1. Shaxsni odam savdosidan jabrlangan sifatida yakuniy identifikatsiyani amalga oshiradi. 2. Yakuniy identifikatsiya zarur holatlar topilgani va aniqlanganidan keyin jamoaviy ravishda amalga oshiriladi. 3. Odam savdosidan jabrlanganni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirishning individual rejasini tasdiqlaydi.	15 kun ichida yoki qo‘shimcha hujjatlar kerak bo‘lsa, bir oygacha

**Dastlabki identifikatsiya.** Dastlabki identifikatsiya qilish jarayonida shaxsni taxmin qilinayotgan odam savdosidan jabrlangan deb tan olish to'g'risida qaror qabul qilish uchun ma'lumotlar olinadi, o'rganiladi va baholanadi. Shaxs vakolatli davlat organlariga murojaat qilgan paytdan e'tiboran besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda shaxsni dastlabki identifikatsiya qilish natijalariga ko'ra odam savdosining taxminiy qurboni deb topiladi.

Dastlabki identifikatsiya qilish bevosita Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Tashqi ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (vakolatli davlat organi) tomonidan amalga oshiriladi.

Amalda odam savdosidan jabrlanganlarni aniqlash ko'pincha ichki ishlar organlari yoki odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashgan nodavlat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jabrlanuvchi borishi mo'jallangan uchinchi mamlakatda, tranzit mamlakatida yoki jabrlanuvchi shaxs kelib chiqqan mamlakatda sodir bo'lishi mumkin.

Shaxsdan murojaat yoki ariza kelib tushganda vakolatli davlat organining mutaxassisi murojaatni darhol ro'yxatdan o'tkazadi. Odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxsni identifikatsiya qilish va uni shunday deb tan olish to'g'risidagi qaror 5 kun ichida amalga oshiriladi, shundan so'ng material shaxsni yakuniy identifikatsiya qilish uchun Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha hududiy komissiyaga yuboriladi.

Odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan odamning shaxsini dastlabki identifikatsiya qilish suhbat tarzida amalga oshiriladi, buning uchun rozilik talab qilinadi. Agar shaxs dastlabki identifikatsiyaga rozi bo'lsa, jarayon jabrlanganlarni qayta yo'naltirish to'g'risidagi VMQning 2-ilovasiga muvofiq rasmiylashtiriladi. Agar shaxs dastlabki identifikatsiyaga bo'lmasa, bu shaxsning jabrlanuvchilarni qayta yo'naltirish to'g'risidagi VMQning 3-ilovasiga muvofiq dastlabki identifikatsiyadan o'tishni rad etish to'g'risidagi arizasi bilan rasmiylashtiriladi.

Odatda, dastlabki identifikatsiya qilish jarayoni har bir shaxs bilan alohida xavfsiz muhitda, ekspluatatsiya qilinadigan hududdan tashqarida, taxmin qilinayotgan odam savdosidan jabrlanganning asosiy ehtiyojlari (oziq-ovqat va suv, tegishli kiyim, birinchi yordam) qondirilgandan keyin amalga oshiriladi.

Odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinganlarni identifikatsiya qilishning dastlabki bosqichida shifokorlar yoki tibbiyot xodimlari ularning sog'lig'i, jismoniy shikastlanishlari va kasalliklarini qayd etishlari kerak. Agar dastlabki identifikatsiya qilish bosqichida shifokor yoki sog'liqni saqlash xodimi mavjud bo'lmasa, dastlabki identifikatsiyani o'tkazuvchi davlat organi mutaxassisi kuzatuvlar asosida tibbiy holat va jismoniy shikastlanishlarni (agar mavjud bo'lsa) qayd etishi shart.

Jabrlanuvchi deb taxmin qilingan shaxsga jismoniy va ruhiy jihatdan tiklanishi va unga nisbatan sodir etilgan jinoyat yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishga qaror qilishi uchun kamida 30 kun muddat beriladi.

Shaxs odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilingan sifatida identifikatsiya qilinganda, vakolatli davlat organi mutaxassisi ushbu shaxsga uning huquqlari to'g'risida ma'lumot beradi va uning roziligi bilan uni yakuniy identifikatsiya qilishni ko'rib chiqish uchun odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurash bo'yicha tegishli hududiy komissiyaga yuboradi yoki kerak bo'lganda, yordam va himoya qilish uchun ixtisoslashgan muassasaga yuboradi.

**Yakuniy identifikatsiya qilish.** Yakuniy identifikatsiya qilish ariza (xabar) berilgan paytdan boshlab bir oy muddatda Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha hududiy komissiya tomonidan kollegial tartibda amalga oshiriladi.

Yakuniy identifikatsiya qilishdan so'ng shaxsni odam savdosidan jabrlangan deb tan olish yoki tan olishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Odam savdosidan jabrlangan deb topilgan shaxs ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashish huquqiga ega.

#### **4 §. ODAM SAVDOSIDAN JABRLANGANLARNI REABILITATSIYA QILISH**

##### **Odam savdosidan jabrlanganlarga yordam.**

Odam savdosidan jabrlanganlikda taxmin qilingan shaxs vaqtinchalik boshpana olish, tibbiy, psixologik, huquqiy va boshqa zarur yordam olish, shuningdek, bepul tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega.

Dastlabki aniqlash vaqtida vakolatli davlat organi mutaxassisi odam savdosidan jabrlanganga, agar odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilingan deb tan olinsa, quyidagi huquqlar kafolatlanishini ma'lum qiladi:

- tibbiy yordam olish;
- psixologik yordam olish;
- yuridik maslahat olish;
- vaqtinchalik turar joydan (boshpana) foydalanish;
- yaqin qarindoshlar bilan aloqa o'rnatish;
- tarjimon xizmatlaridan bepul foydalanish.

Shuningdek, odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurash bo'yicha hududiy komissiya tomonidan odam savdosidan jabrlangan deb tan olingan shaxs ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashish huquqiga ega. Ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashish ixtisoslashgan nodavlat tashkilotlari tomonidan ham tashkil etilishi mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasida odam savdosi va majburiy mehnatdan  
jabrlanganlarga yordam ko‘rsatuvchi tashkilotlar ro‘yxati**

<b>№</b>	<b>Tashkilot nomi</b>	<b>Bog‘lanish uchun ma’lumot</b>
1.	Respublika «ISTIQBOLLI AVLOD» ijtimoiy-axborot markazi (hududiy bo‘limlari)	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 8a-uy, tel: 254-12-87, 143-94-94, 99-858-12-24
2.	Zo‘rluk ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga kasd qilishning olish olish respublika markazi (hududiy bo‘limlari)	Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Dilxush ko‘chasi, 38-uy. tel: 97-449-26-00
3.	Fuqarolik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash markazi	Toshkent shahri, Sag‘bon ko‘chasi, 223-a-uy, tel: 227-35-02, 333-51-85, 150-44-65
4.	Mintaqaviy tahdidlarni o‘rganish markazi	Toshkent shahri, Mirobod tumani, S.Azimov ko‘chasi, 79-uy, tel: 90-994-72-30
5.	Surxondaryo viloyati «Barqaror hayot» ijtimoiy-ma’rifat markazi	Termiz shahar, A.Navoiy ko‘chasi, 41s-uy, tel: 76-223-77-21, 90-918-08-20
6.	«Mehrimiz sizga» ayollar va oila a‘zolarini huquqiy qo‘llab-quvvatlash markazi	Andijon shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 32/34 uy, tel: 374 2353778, 91 6079559, halida05@gmail.com
7.	«Oydin nur» oilani ijtimoiy himoyalash markazi Buxoro viloyat bo‘limi	Buxoro shahar, Rug‘angaron ko‘chasi, 31 uy, tel: (365) 223-58-58, 224-60-75, 224-65-11, (65) 471-77-52. mavluda@bukhara.uzsci.net, umka83@rambler.ru
8.	Farg‘ona viloyati «Qalb Nuri» ayollar va ularning oilalarini ijtimoiy-huquqiy qo‘llab-quvvatlash markazi	Farg‘ona shahar, Quruvchilar ko‘chasi, 4 uy, tel: 222-51-03, 222-59-16, (90) 582-04-77, 230-39-28. tuhdamira@mail.ru
9.	Jizzax viloyati «Istiqlol avlodi» ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy qo‘llab-quvvatlash markazi	Jizzax shahri, Azizbekova ko‘chasi, 136-uy. tel: 91-595-32-86, 91-5648181
10	Sirdaryo viloyati «Yurt istiqboli» ijtimoiy axborot markazi	Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, O‘zbekiston shoh ko‘chasi, 95-uy, tel: 99- 010-63-15

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 5 noyabrdagi «Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo‘yicha respublika reabilitatsiya markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi 240-son qaroriga asosan Markaz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimida odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo‘yicha reabilitatsiya tashkiloti hisoblanadi.

Odam savdosidan jabrlanganlar, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bo‘lishi mumkin hamda ular Markaz xizmatlaridan foydalanuvchilar hisoblanadi.

Markaz o‘z faoliyatini quyidagi asosiy tamoyillar asosida amalga oshiradi:

odam savdosidan jabrlanganlarning, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

odam savdosidan jabrlanganlarning, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarning shaxsi va shaxsiy hayoti maxfiyligiga rioya qilish;

odam savdosidan jabrlanganlarni, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarni ijtimoiy, psixologik va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda yakka tartibda parvarish qilish.

#### **Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:**

odam savdosidan jabrlanganlarni, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarni qulay yashash va shaxsiy gigiena shart-sharoitlari, shuningdek, oziq-ovqat, dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta‘minlash;

odam savdosidan jabrlanganlarga, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarni ijtimoiy moslashtirish sohasida xorijiy mamlakatlarning ilg‘or metodikalarini o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etish;

odam savdosidan jabrlanganlarni, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarga ularning qiziqishlaridan kelib chiqib kasb-hunar o‘rgatish, ularning bandligini ta‘minlashga ko‘maklashish;

nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda keng miqyosda oldini olish-profilaktika ishlarini tashkil qilish;

odam savdosidan jabrlanganlarni, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishda ko‘maklashish.

**Markaz zimmasiga yuklangan asosiy vazifalariga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:**

*a) odam savdosidan jabrlanganlarni, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarni qulay yashash va shaxsiy gigiena shart-sharoitlari, shuningdek, oziq-ovqat, dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash sohasida:*

yashash uchun boshpana bilan ta’minlaydi;

belgilangan tartibda va me’yorlarga muvofiq oziq-ovqat bilan ta’minlaydi;

belgilangan tartibda tibbiy yordam va tibbiy buyumlar bilan ta’minlaydi;

*b) odam savdosidan jabrlanganlarni, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarni ijtimoiy moslashtirish sohasida xorijiy mamlakatlarning ilg‘or metodikalarini o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etish sohasida:*

tibbiy, ijtimoiy reabilitatsiya qilishning yangi uslub va mexanizmlarini ishlab chiqadi va tatbiq qiladi;

ishlab chiqilgan uslub va mexanizmlarini xorijiy mamlakatlarning ilg‘or metodikalari asosida doimiy ravishda yangilaydi;

*v) odam savdosidan jabrlanganlarni, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarga ularning qiziqishlaridan kelib chiqib kasb-hunar o‘rgatish, bandligini ta’minlashga ko‘maklashish sohasida:*

odam savdosidan jabrlanganlarning, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarning ijtimoiy reabilitatsiyasiga va moslashuviga ko‘maklashadi;

kasbga o‘rgatish va ularning bandligini ta’minlashni tashkillashtiradi;

*g) nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda keng miqyosda oldini olish-profilaktika ishlarini tashkil qilish sohasida:*

ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda keng miqyosda oldini olish-profilaktika ishlarini tashkil qiladi;

nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda odam savdosidan jabrlanganlarni, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

***d) odam savdosidan jabrlanganlarni, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishda ko‘maklashish sohasida:***

odam savdosidan jabrlanganlarning, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarning xavfsizligini ta‘minlaydi;

odam savdosidan jabrlanganlarning, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarning qarindoshlari bilan muloqot o‘rnatishiga ko‘maklashadi;

odam savdosidan jabrlanganlarga, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarga ularning qarindoshlariga va vasiylariga odam savdosidan jabrlanganlarga, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini to‘g‘risida axborot beradi.

Odam savdosidan jabrlanganlar, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlar Markazda **o‘ttiz kungacha** muddatga joylashtiriladi. Tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya jarayonlari davom ettirilishi talab etilgan hollarda odam savdosidan jabrlanganlarning, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarning Markazda bo‘lishi muddati **uch oygacha** muddatga uzaytirilishi mumkin. Agar odam savdosidan jabrlanganlarning, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘ilsa yashash muddati ko‘rsatib o‘tilgan jabrdiydalarni himoya qilish uchun zarur deb hisoblangan davrga uzaytiriladi.

**Markaz odam savdosidan jabrlanganlarga, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarga:**

samarali ijtimoiy reabilitatsiya qilinishiga ko‘maklashadi;

huquqlari va qonuniy manfaatlarini to‘g‘risida axborot taqdim etadi;

xavfsizligini ta‘minlaydi;

ovqatlanish, dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta‘minlaydi;

qulay yashash sharoitlari va shaxsiy gigiena vositalari bilan ta‘minlaydi;

qarindoshlari bilan aloqa o‘rnatishga ko‘maklashadi;

odam savdosi jabrdiydalari ijtimoiy reabilitatsiya qilinishiga ko‘maklashadi.

Odam savdosining har bir jabrdiydasiga uning sog'lig'i holatini kompleks tekshirib chiqish va baholash natijalari, ijtimoiy, psixologik, yuridik va boshqa yordam zarurligi yuzasidan ishlab chiqiladigan shaxsiy reabilitatsiya qilish rejasi asosida yordam ko'rsatiladi. Har bir odam savdosidan jabrlanganlarning, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarining shaxsiy reabilitatsiya qilish rejasining namunaviy shakli Markaz tomonidan ishlab chiqiladi hamda Agentlik tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Agentlikning hududiy organlari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari Markazning buyurtmanomalari bo'yicha odam savdosidan jabrlanganlarga, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlarga:

huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi mavjud sud tartib-qoidalar va ma'muriy tartib-qoidalar to'g'risida maqbul shakldagi axborotni taqdim etadilar va boshqa zarur yuridik yordamni ko'rsatadilar;

uning farzandlari ta'lim muassasalariga qatnashini uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydilar;

tibbiy ko'rikdan o'tish va mutaxassis tomonidan ko'rik o'tkazilib, maslahat olish orqali malakali psixologik va tibbiy yordam beradilar;

professional jihatdan reabilitatsiya qilinishda va ishga joylashishda ko'maklashadilar.

Odam savdosidan jabrlanganlar, odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotganlar qaytarilgan oila ustidan, ularga nisbatan odam savdosi takroran sodir etilishining oldini olish maqsadida, bir yil mobaynida monitoring olib borilishi kerak. Monitoring doirasida Markaz ichki ishlar organlari hamda vasiylik va homiylik organlari mutaxassislari tomonidan shaxs qaytgandan keyin uning oiladagi holati baholanadi.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda Konstitutsiyasi (2023 yil 1 maydagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
2. Qullik to‘g‘risidagi konvensiya (1926).
3. Zo‘raki yoki majburiy mehnat to‘g‘risidagi konvensiya (1930).
4. Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanilishiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Konvensiya (1949).
5. Majburiy mehnatni tugatish to‘g‘risidagi konvensiya (1957).
6. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (1989).
7. 1993 yil 22 yanvardagi «Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha xuquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risida»gi Konvensiya.
8. Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va ularni tugatish bo‘yicha tezlik bilan chora-tadbirlar ko‘rish to‘g‘risidagi konvensiya (1999).
9. BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi (2000).
10. Uy ishchilari munosib mehnati to‘g‘risidagi konvensiyasi (2011 yil № 189)
11. Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taaluqli BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning fakultativ protokoli (2000).
12. Qullik to‘g‘risidagi konvensiyaga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi protokol (1926).
13. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini (2000 y.), to‘ldiruvchi Odam savdosining, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo‘yish va uning uchun jazolash haqidagi protokol.

14. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini to'ldiruvchi, quruqlik, dengiz va havo yo'llari orqali migrantlarning noqonuniy olib kirilishiga qarshi protokoli (2000 yil).

15. 1930 yildagi Majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiyaga 2014 yil protokoli.

16. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentabrdagi 2012-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan (2023 yil 31 oktabrdagi o'zgartirish va qo'shimchalar).

17. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentabrdagi 2013-XII-son Qonuni (2023 yil 27 sentabrdagi o'zgartirish va qo'shimchalar) bilan tasdiqlangan.

18. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 16 sentabrdagi Qonuni. «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'RQ-179-son.

19. «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 17 avgustdagi O'RQ-633-sonli Qonuni.

20. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 fevraldagi 60-son «Odam savdosidan jabrlanganlar yoki odam savdosidan jabrlangan deb taxmin qilinayotgan shaxslarni milliy darajadagi qayta yo'naltirish tizimini tasdiqlash» to'g'risidagi qarori.

21. Oliy sud Plenumining 2006 yil 3 fevraldagi 1-sonli «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi qarori.

22. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009 yil 24 noyabrdagi 12-sonli «Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarori.

23. BMT, Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar. Quyidagi havola orqali ko‘rish mumkin <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals/>.

24. YeXHT, Odam savdosining biznes modeli sifatida tahlili: jinoyatchilikning yanada samarali oldini olish yo‘li (2011).

25. IHOKB, Inson huquqlari va odam savdosi bo‘yicha tavsiya etilgan tamoyillar va yo‘riqnomalar (2002).

26. Odam savdosiga doir ishlarni tergov qilish va sudda ko‘rib chiqish bo‘yicha amaliy qo‘llanma [Matn]/ muharrir Z. Kudratov. - Toshkent: “Baktria press”, 2024. - 140 b.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1 §. ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI.....	4
2 §. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISH TO‘G‘RISIDAGI MILLIY NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARI.....	17
3 §. ODAM SAVDOSIDAN JABRLANGANLARNI IDENTIFIKATSIYA QILISH.....	28
4 §. ODAM SAVDOSIDAN JABRLANGANLARNI REABILITATSIYA QILISH .....	42
FOYDALANILGAN DABIYOTLAR.....	48

RASULEV ULUGBEK ERKINOVICH

# **ODAM SAVDOSIDAN JABRLANGANLARNI IDENTIFIKATSIYA QILISH**

*Amaliy qo'llanma*

*(Huda odam savdosiga qarshi kurash faoliyatini amalga  
oshiruvchi xodimlar uchun metodik tavsiyalar)*

Bosishga ruxsat etildi \_\_\_\_\_2025 y. Nashriyot hisob tabog'i 4,3.  
Buyurtma №..... Adadi \_\_\_\_ nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti,  
100213. Toshkent shahri, Bektemir tumani, X.Bayqaro ko‘chasi, 27a uy.